



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

**TARIX VA IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI
5141500 – ”MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT ASOSLARI,
XUQUQ TA’LIMI” YO’NALISHI
4 – BOSQICH ”A” GURUH TALABASI**

UMAROV YAXYOBEKNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Ilm–fan madaniyati masalalari tarkibida tabiatshunoslik
ilmlari yutuqlarining ma’naviy amaliyoti masalalari.**

.

Ilmiy rahbar:

Sh. Asqarov

Andijon – 2014

MUNDARIJA

Kirish.....	3
--------------------	----------

I – bob: Insoniyatning ma’naviy rivojlanish davri davomida ilm-fanning beqiyos o‘rni va roli masalasi.

1.1 Inson madaniyatining moddiy va ma’naviy jihatlarining vujudga kelishi, odamzotda tafakkur va idrok rivoji.....	6
1.2 Sivilizatsiyaning vujudga kelishida, ilm-fanning dastlabki chashmalari, taraqqiyotning ilmiy, nazariy yutuqlarining inson xayotini yuksalishiga ta’siri...	22

II – bob: Inson ma’naviy o‘zligini shakllanishida ilm-fan va aynan tabiatshunoslik ilmlari yutuqlarining amaliyotidagi o‘rni va roli.

2.1 Ilm –fanning inson ma’naviyatini shakllanishida roli va o‘rni.....	34
2.2 Tabiatshunoslik fanlari imkoniyat va yutuqlarining inson hayoti va ayniqsa ma’naviy qiyofasini shakllanishida omil sifatidagi ahamiyati.....	55

Xulosa	67
---------------------	-----------

Glosariy.....	69
----------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar.....	70
---------------------------------------	-----------

Kirish

Insoniyat rivojlanish tarixi uning tafakkuri, idroki yuksalishi va o'sib unishda ijodiyligi bilan chambarchas bog'liqlikda sodir bo'lgan. Zaminimizning rivojlanishi va hozirgi xolatga kelishida birinchi galda tabiat o'z qonuniyatlari bilan sodir etayotgan rivojlanish yuz berayotgan bo'lsa, ikkinchi galda xayotga, tabiat o'zgarilariga inson daxildordir. Negaki bu olamda oliy ilohiy kuchga ega bo'lgan tabiatdan so'ng (diniy nazar bilan qaralganda Oliy ong Olloxga mansub bu qudrat) faqat inson ijodiylik imkoniyatiga, yani tafakkur qilish va ijod etish imkoniyatiga egadir. Mana shu ikki idrok qudrati ila sodir bo'layotgan hozirgi yuksalishi o'zgarishlar inson uchun yashash makonida amalga oshmoqda. Demakki yuz berayotgan o'zarishlar, rivojlanishlar, buxronlar, barcha barchasi inson makonida sodir bo'lmoqda, shu bois uning na qadar bunyodkorligi yoki vayronkorligi barcha tirik mavjudod uchun daxildordir.

Bu daxildorlikni mukammal xolatga keltirish, uni vayronkorlikka emas bunyodkorlikka yo'naltirish ma'lum darajada inson tafakkuri va uning idroki bilan to'plangan bilimiga xam bog'likdir. Bugun Mustaqil O'zbekistonimizda sodir bo'layotgan bunyodkorlik isloxiy o'zgarishlari o'z mazmun mohiyatiga ko'ra faqat va faqat bunyodkorlikka qaratilgandir. Bunda idroki tamonidan yaratilgan ilm fan yutuqlari misli ko'rilmagan darajada imkoniyatlarni kishilar qo'lga bermoqda. Shunday ekan bu imkoniyatlarning odamlar ma'naviyatiga ta'siri masalasiga aloxida e'tibor bermay bo'lmaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari; Ishimizning birinchi galdagi maqsadi ijtimoiy fanlar va tabiiy yoki aniq yoki boshqa fanlar birlashuvini, tadqiqot soxalari yakdilligini ko'rsatmoqlikdir. Inson ong yaratgan barcha ixtiro, yangilik, ijod barchasi farovonlik va xayotni yahshilashga qaratilgandir. Shunday ekan inson idroki maxsulining birortasi, qaysi soxa bo'lishidan qa'tiy nazar inson ongi va qalbining mahsulidir. Shu bois ilm fan yutuqlarini, xususan tabiatshunoslik fanining zaruriy soxalarini inson ma'naviyati, yuksak ma'naviyati maxsuli bo'lishi kerakligini va bu maxsulotlardan yuksak ma'naviyat yuzasidan faydalanish zarurligini isbot qilish va ko'rsatib berishga intildim.

Vazifa sifati o'z oldinga qo'ygan yuk, tabiatshunoslik fani yutuqlari insonning yanada mukammal bo'lishiga xizmat qilishi mukinligini barchaga ko'rsatishga qaratildi.

Mavzuning dolzarbligi: Tadqiqotimiz mavzusi sifatida olingan ilm fan soxasi va uning ajralmas bir bo'lagi bo'lmish tabiatshunoslik fanlari bugungi kunda eng zaruriy va eng omilkor yo'nalishlardan biridir. Inson qanchalik tabiat bilan bog'liq ekan u undan shunchalik nemat kutadi. Bu nematlarni qanchalik ko'p olishga intilar ekan shu darajada ko'plab yo'llarni, imkoniyatlarni, va vositalarni qidirib topib ishga solishga intiladi. Aynan shu o'rinda inson nafsining chegarasi va mezoni bo'lib yolg'iz ma'naviyat chiqishi mumkin. Ma'lumki inson

madaniy mavjudod, demakki madaniyatdagi ikki yoʻnalish yani moddiy madaniyat va maʼnaviy madaniyat birlikda insonning oʻzligini belgilaydi. Aynan shu maʼnoda men oʻz tadqiqotimning dolzarbligini belgilagan xolda uni oʻrganishga xarakat qildim.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi; Mavzuning oʻrganilganlik darajasi hozirgi davrda keng miqyosda asosan tabiatshunos olimlar tomonidan olib borilgan boʻlib, asosan tabiatshunoslik muammolarini oʻrganishda soxaning dastlabki zarurati sifatida isbotiy dalillar keltirib borilgan. Bizning ijtimoiy fan sohalarida bu mavzuga yondoshish uni chuqur oʻrganishga yoʻnaltirilgan ishlar deyarli juda kam. Biz faqat bazi bir ishlarda u yoki bu sohaga yondoshilganini koʻra oldik.

Vaxolanki bugun globallashuv, ilmiy texnik progress, irsiyatshunoslik, klonlash va boshqa shu kabi xolatlar bu soxalarga aloxida etibor qaratishni talab etmoqda. Mustaqil Oʻzbekiston Prezident I.A.Karimov nutqlari, chiqishlari, asarlari bizning mavzuimizga bazi bir masalalarini oʻrganishimizda imkoniyat yaratib berdi.

Biolog olimlarimizdan prof. b.f.d. T.A.Madumarov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida,maqola va asarlarida mavzuimizga yaqin yondoshishni koʻrishimiz mumkin.

Malakaviy ish obʼekti va predmeti: Tadqiqotning obʼekti bizning ilm sohamizga mansub boʻlgan inson uning qalbi birinchi galdagi masala boʻlsa ikkinchi xos obʼekt inson ongidir. Negaki xar qanday fan ilm odamdan idrok, tafakkur talab etadi, aynan tabiatshunoslik ham shu obʼektlarning maxsulidir. Ammo ongning mahsuli bolmish ilmiy yangilik nimaga qaratilishi mumkni degan sovolga tadqiqotimizning predmeti maʼnaviyat javob bera oladi. Demak tadqiqotning obʼekti sifatida inson ongi maxsuli boʻlmash tabiatshunoslik fani soxasi yutuqlari boʻlsa uning predmeti bu maxsulotlarni nimaga qaratilayotganini belgilovi inson maʼnaviyati deb belgilash mumkin.

Tadqiqot ilmiy yangiligi. Malakaviy ishimning ilmiy yangiligi shundaki, mavzu ikki fan yoʻnalishi kesishuvida yaʼni tabiatshunoslik fani marraolari va inson qalbi meyorlari xaqidagi fan maʼnaviyat asoslari fani soxalarida olingan. Ilmiy jixatdan yondoshilganda ikki fan yutuqlari natijalarini inson hayotidagi oʻrnini aniqlash va belgilash mening ishimdagi oʻziga xos kichik ilmiy yangilikdir. Undan tashqari tabiatshunoslik fani yutuqlarni bevosita va bilvosti maʼnaviyat asoslari faniga yondoshtirishga intilish bu xam oʻziga xos ilm yangiligi sari intilishdeb xisoblayman.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy axamiyati va taklif muloxazalar. Bitiruv malakaviy ishining amaliy axamiyati inson ongi mahsuli sifatida uning qalbi va ongi tutashuvini yana bir bor taxlil qilishga va oʻylantiruvchi malumotlar sifatida chiqshi mumkin. Balki bazi bir muloxazalarimiz maʼnaviyat soxasi mutaxasislariga, bazi bir fikirlarimiz tabiatshunoslik fani olimlariga munozarali tuyular, demakki biz oʻz maqsadimiz ularni shu fikir tamonga yoʻnaltira

olgan deb xisoblaymiz. Etiborini jalb etgan xolda inson ongi va qalbi maxsuli fanlari birligiga turtki berdik. Ikkinchidan tadqiqotimizda keltirilgan fikr muloxazalar qay darajada ma'naviyat asoslari fan yo'nalishda manba sifatida foydalanilsa, shunchalik yo'sinda tabiatshunoslik va boshqa fan yo'nalishlari darslarida, mashg'ulotlarida foydalanish mumkindir.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: bitiruv malakaviy ishi kirish, 2-bob, 4-bo'lim, xulosa, glosariy va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

I – bob. Insoniyatning ma'naviy rivojlanish davri davomida ilm- fanning beqiyos o'rni va roli masalasi

1.1 Inson madaniyatining moddiy va ma'naviy jixatlarining vujudga kelishi, odamzotda tafakkur va idrok rivoji.

Jamiyat taraqqiyoti muayyan fikrlar, g'oyalar, mafkuralar tarixidir. Jamiyat taraqqiyotida kishi-larning tevarak olam sirlarini o'rganishi, tabiat va jamiyat qonunlarini kashf etishi, tabiiy bilimlari va dunyoqarashlari juda muhim ahamiyatga ega. Dunyoning tuzilishini tushuntirgan va unda qanday yashash lozim-ligini ko'rsatgan ilmiy bilimlarning yuzaga kelishida insoniyatning eng ilg'or vakillari yaratgan dunyoviy g'oyalar hamisha taraqqiyot uchun xizmat qilib kelgan. Jumladan, Demokritning atomlar to'g'risidagi farazlari, Kopernikning geliotsentrik nazariyasi, Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi yutuqlari, Beruniyning «G'arbiy yarim sharda quruqlik bor» degan fikrlari, Ulug'bekning koinot sirlarini o'rganish sohasidagi yutuqlari, Eynshteynning nisbiylik nazariyasi kabi ilmiy g'oyalar insoniyat taraqqiyotiga juda kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Inson tafakkuriga tayangan fan taraqqiyoti olam kabi uzluksiz va cheksizdir. Bu jarayonda tasdiq-lanmagan, eskirgan fikrlar yangi ilmiy g'oyalar bilan o'rin almashaveradi. Millatlar tashkil topgan davrlardan, milliy g'oya va mafkuralar eng dolzarb, siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy masala hisoblanib, jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, ommani ma'naviy ruhiy jihatdan tarbiyalashga katta hissa qo'shgan. Inson kamolotini fikrsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, jamiyat tarixini ham g'oya va mafkuralarsiz tushuntirib bo'lmaydi. G'oya va mafkura, ayniqsa, milliy g'oya birdaniga qisqa muddatda paydo bo'ladigan hodisa emas. Aslida guyo birdaniga paydo bo'lganday tuyulgan g'oya zahirida ham ongning ko'p asrlik taraqqiyoti yotadi. SHu jihatdan qaralganda milliy g'oya uzoq jarayonlarning hosilasi bo'lib, o'zida xalqning tarixi, dunyoqarashi, maqsad va intilishlari, ma'naviyatini mujassam etadi.

Milliy g'oya va mafkura har bir fuqaro ongi va shuuriga chuqur tasir qilib uning oila, mahalla, jamiyat, davlat, xalq oldidagi burch va masuliyati qay darajada ado etilayotganini nazorat qilib turadi.

Milliy g'oya - millat tafakkurining ko'p asrlik mahsuli va davr taqozosi bilan takomillashib boruvchi uzluksiz hodisadir. Falsafada, fikrlayapman, demak yashayapman, degan hikmat bor. Milliy g'oya - inson va jamiyat hayotiga ma'no -mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari etaklaydigan fikrlar majmui, xalq hayotining fikriy ifodasidir. Har qanday tushuncha, fikr va qarash ham milliy g'oya bo'la olmaydi. Chunki shaxsiy fikr o'ziga xos bir qarashdir. Ammo u o'sib, ijtimoiy fikrga aylanishi mumkin. Boshqacha aytganda, fikrsiz g'oya yo'q. Ijtimoiy fikr esa - voqelikka nisbatan o'zgarish yoki harakatni taqazo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. G'oya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tug'ilganda esa, butun bir davr tarixiga aylantiradi. Milliy mafkura - mohiyatan milliy g'oyaga etish yo'li. Nima qilinsa shu g'oyaga intilish tezlashadi, osonlashadi, maqsad amalga oshadi, qanday ish tutilsa mazkur g'oyaga zid harakatlarning yo'li to'siladi - milliy mafkura aynan shu savollarga javob beradi va o'ziga xos vazifalarga ega. Ilmiy tarzda aytganda milliy mafkura - taktika bo'lib, tarixan diniy, axloqiy, huquqiy, siyosiy, estetik, falsafiy shakllarda namoyon bo'ladi. Milliy mafkura - xalqning o'zgalarga tobe bo'lmay erkin va ozod yashashi, o'zini o'zi idora etishga qaratilgan, uning istiqbolini belgilaydigan orzu umidlari, qarashlari, eng ilg'or fikrlari majmuidir.

Prezidentimiz «Tafakkur» jurnali bosh muharriri bilan bo'lgan suhbatda mafkuraga, xususan milliy mafkuraga bo'lgan munosabatini konsepsiya sifatida shunday ifodalaydi: «Odamlarning, ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rmini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'pri bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman».

Darhaqiqat, mafkura o'tmish, bugungi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos tafakkur ko'prigi va millatni birlashtiruvchi bayroqdir. O'zbekistonda bir yuz o'ttizdan oshiq millat, elat va etnik guruhlar bir mamlakat hududida yashar ekan, ularning bir maqsadni ko'zlashi, o'zaro uyg'unlikka ega bo'lishi, milliy birlikni vujudga keltirish uchun, albatta, o'zaro o'ziga xos bir milliy mafkurasi bo'lishi hayotiy zaruriyatdir. Shuning uchun ham mafkura bugungi kunimizda ko'p millatli xalqimizni bir davlat miqyosida, bir yurt xalqini bir hududda birlashtiruvchi asosiy kuch sifatida ham maydonga kelishi mustaqil taraqqiyot talabi hisoblanadi. Milliy mafkura bizda davlat mafkurasi emas. Ma'lumki, har qanday davlat mafkurasi ma'lum darajada kuchga asoslanadi. Milliy mafkura esa ixtiyoriylikka tayanib, mamlakat xalqining manfaatlarini himoya qiladi, shunga asoslanadi. Milliy mafkurasi kuchli xalqlarda «men» va «jamiyat» degan tushunchalar o'zaro birikib, uyg'unlashib ketadi. Chunki endi har bir shaxs tashlagan qadami, yurgan yo'li, qilgan ishi bo'yicha o'ziga-o'zi:

«Men uchun-ku bu yaxshi, lekin xalqim, mamlakatim uchun-chi?» deb savol beradigan bo'ladi.

O'ylab ko'rsa, hech kimning o'z xalqi manfaatiga zid ish ko'rishga haqqi yo'q. Lekin hammaning shu darajada yuksak ma'naviy mezonga javob beradigan darajaga etishi uchun kuchli milliy mafkuraga ergashgan tafakkuri bo'lishi kerak. Milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish taraqqiyotimizning bebaho manbai bo'lmish inson omilining safarbar qilinishi bilan qadrli. Zero, islohotlar avval odamlarning ongida, keyin ishlarida amalga oshadi. Milliy g'oya va milliy mafkura murakkab jarayon bo'lib, o'nlab yillar davomida shakllanadi. U qotib qolgan nazariya emas, davr, vaqt o'tishi bilan takomillashib, rivojlanib boradi. Buning uchun muntazam, uzluksiz, sabr-toqat bilan ma'naviy-marifiy va targ'ibot ishlarini olib borish zarur.

Ma'naviy barkamollik, mafkuraviy sobitlik namunasini xalq, avvalo, joylardagi rahbarlarda, ziyolilarda ko'rish kerak. Rahbar kadr, ziyolining, murabbiyning mafkurasi, iymon - e'tiqodi mustahkam bo'lsa, uning aytgan har bir so'zi targ'ibotchining so'ziga, g'oyaga aylanadi. Bu esa davlat, jamiyatni yanada qudratli qiladi. Milliy g'oya va milliy mafkura jamiyatning ma'naviy hayotiga o'ziga xos ichki mushtaraklik, bus-butunlik va umumiy maqsad bag'ishlaydi. Agar milliy g'oya va milliy mafkura xalqning tub manfaatlarini ifodalay olsa, jamiyat miqyosida aksariyat fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va sinflar tomonidan tan olinsa, ma'naviyatning barcha sohalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Milliy g'oya turli sinflar, tabaqalar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar manfaatlaridagi umumiylikni, ya'ni umummilliy manfaatlarni, xalqning orzusini aks ettiruvchi g'oyadir. Ushbu sifatda u millatning jipsligini ta'minlovchi, o'zligini anglatuvchi ma'naviy omildir. Milliy mafkura milliy g'oya tevaragida shakllanadi va u ifodalagan oliy maqsad yo'lida jamiyat a'zolarini etnik mansubligidan, ijtimoiy ahvolidan, jinsi, yoshi, tilidan qat'iy nazar jipslashtiradi. Boshqacha aytganda, milliy g'oya milliy mafkura orqali xalqning kuch g'ayratini, irodasini, aqliy va hissiy salohiyotini belgilangan amallarga, orzu-umidlarga erishish tomon yo'naltiradi. Bu yo'lda uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga safarbar etadi.

Xo'sh, milliy mafkuramiz nimalarga asoslanishi va ongimizga qanday tamoyillarni singdirmog'i lozim? Bu savolga javobni ham Prezidentimiz asarlaridan topish mumkin. «Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'alarimizga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonib, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim. Shu bilan birga bu mafkura xalqimizga o'zining qudrati va himoyasiga suyangan xolda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon

hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli o'laroq munosib o'rin egallashiga doimo intilish hissini tarbiyalamog'i kerak».

Shubhasiz, aynan milliy mafkuragina fikr qaramligi, tafakkur qulligining oldini olishga xizmat qiladi, milliy jipslikni, taraqqiyotni, mamlakatimizning tom ma'nodagi buyuk kelajagini ta'minlaydi. Mafkuraviy tahdid va mafkuraviy immunitet. Insoniyat tarixi fikrlar, g'oyalar kurashidan iborat bo'lib kelgan va biz yashayotgan davr ham bundan mustasno emas. Fikrsiz inson bo'lmaganidek, g'oya, mafkurasiz jamiyat ham bo'lmaydi. Biroq shunday paytlar bo'ladiki, muhitda mafkuraviy bo'shliq yuzaga keladi va bu jamiyat uchun juda tahdidlidir.

Hozirgi paytda, mafkuraviy tahdidlar eng, avvalo mafkuraviy bo'shliq tufayli sodir bo'lmoqda. Ma'lumki, hayotda ma'lum bir tajribaga ega bo'lgan, achchiq-chuchukni ko'rgan kishilarning, yaxshini - yomonni, dunyoqarashini o'zgartirish juda qiyin. Mafkuraviy tahdidlar, avvalo yoshlar uchun xaffidir. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ma'lum bo'ldiki, bizda asosan, hali hayotiy tajribaga ega bo'lmagan, oq-qorani, yaxshi-yomonni tanib ulgurmagan yoshlar har turli yot g'oyalarga, turli ta'sirlarga tez berilmoqda. O'zbekiston mustaqilligiga tahdid soladigan intilish va harakatlarning zararini qirqish uchun joylarda rahbar kadrlar, murabbiylar fuqarolar, xususan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, g'oyaviy-mafkuraviy sohadagi muammolarni aniqlab, uni hal etish choralarini ko'rishlari, milliy qadriyatlarimizni, boy ma'naviy merosimizni keng targ'ib qilishlari yaxshi samara beradi. Prezident «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblarida aytganlaridek: «Har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida Ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas fikriga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur». Darhaqiqat, xalqimizni turli mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish uchun uni, avvalo, taraqqiyot qonunlarini o'zida chuqur aks ettiradigan sog'lom, insonparvar mafkura bilan qurollantirish zarur.

Fuqarolarimiz, avvalo yoshlar mustaqil dunyoqarashga ega bo'lib, ularda milliy istiqloq g'oyalarini chuqur anglash hissi shakllansa, johil aqidaparastlarning «da'vati» ham, ahloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Bunda biz har qanday g'oya tashviqotchisi inson orqali jamiyatga ta'sir ko'rsatishini doimo nazarda tutishimiz kerak. G'oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta'siri. G'oyaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati juda muhim falsafiy masaladir. Inson o'zi g'oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi. O'zi yaratgan g'oyalari insonning ongi va shuurini, tafakkuri va e'tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi. Yuksak g'oyalar

odamlarni olijanob maqsadlar sari etaklaydi. G'oyasi yetuk, e'tiqodi butun, qadriyatleri yuksak insongina mardlik namunalarini ko'rsata oladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan etishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoyi insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning Shiroq va To'maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari buyuk g'oya sohiblaridir. Ming yillar o'tsa ham, buyuk ajdodlarimizning matonati qahramonligi xalqning xotirasidan o'chmay-di. Chunki ular yuksak g'oyalar - Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilmu urfon rivoji yo'lida jon fido qilganlar. Rivoyatlarga ko'ra, Ahmad Yassaviy 60 yildan ziyod umrini yer ostida o'tkazganida ham, Najmiddin Qubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jang qilganda ham ulug'vor g'oyalar ularga sabr-bardosh va matonat ato etgan. Jordano Bruno jismu jonini egallagan buyuk g'oya tufayli gulxan alangasida ham o'z e'tiqodidan qaytmagan, Nasimiy, tovonidan so'ysalar ham, ishq ilohiy deb jon bergan.

Jahon tarixidan, jumladan, xalqimizning o'tmishidan ham, qaysi sohada bo'lmasin, mardlik va jasorat ko'rsatish uchun insonga albatta ulug'vor g'oya kerak ekaniga ko'plab misollar topiladi. Muayyan bir g'oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgani, jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur sohiblari mislsiz zahmat chekkanini ko'ramiz. Suqrot va Platon, Konfutsiy va Zardo'sht, Alisher Navoiy va Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdig'idir. Ularning har biri o'z davrida o'zi mansub xalqni birlashtiradigan ulkan ahamiyatga molik g'oyalarni yaratganlar. Bu g'oyalarga tayanib bunyodkorlik yo'lida, ezgu maqsadlarga erishish uchun hormay-tolmay mehnat qilganlar. Bu borada insoniyatga «o'zini anglamoq buyuk saodat» ekanligini anglatgan Suqrot ham, «xalqni yakqalam qildim», deya qoniqish hissini tuygan Navoiy ham, Hindiston va Pokiston ozodligi yo'lida umrini baxshida aylagan Maxatma Gandi ham bugungi avlodlar uchun ibrat namunasi bo'lgan ulug' insonlardir.

Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch - bunyodkorlik va buzg'unchilik g'oyalari hamisha o'zaro kurashadi.

Biz o'rganayotgan fanning asosiy tushunchalaridan bo'lgan bunyodkor g'oya ham Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari etaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi g'oyani anglatadi. Bunyodkorlik g'oyasi insonni

ulugʻlaydi, uning ruhiga qanoat bagʻishlaydi. Sohibqiron Amir Temurning parokanda yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga ana shunday ezgu gʻoyalar asos boʻlgan. Toki dunyoda taraqqiyotga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, jamiyatda ilgʻor gʻoyalar tugʻilaveradi. Buzgʻunchi gʻoyalarning vujudga kelishiga esa vayronkor intilishlar sabab boʻladi. Shunday ekan, ularga qarshi kurashga tayyor turish, yaʼni doimo hushyor va ogoh boʻlib yashamoq hayotning asosiy zarurati boʻlib qolaveradi. Milliy gʻoya va mafkura oʻzida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyat va imkoniyatlarni toʻla yuzaga chiqarishda beqiyos omil boʻladi.

Masalan, XX asrda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan yaponcha taraqqiyot modelini olaylik. Yapon milliy mafkurasi «milliy davlatchilik tizimi» (kokutoy), «fuqarolik burchi», «yapon ruhi», «tadbirkorlik», «umummilliylik», «fidoyilik», «vatanparvarlik», «paternalizm», «jamoaga sadoqat», «modernizatsiya» kabi gʻoya va tushunchalar ushbu mamlakatning bugungi kunda erishgan yuksak natijalariga poydevor boʻldi.

Gʻoyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik esa millatning birdamligi, davlatning qudratiga putur etkazadi, uning taraqqiyotini orqaga surib yuboradi. Masalan, Chingizxon bosqini, chor istilosi davrlarida ayrim hukmdorlarning xalqni birlashtirib kurashga safarbar etmagani oʻlkamizning qaramlik changaliga tushib qolishiga sabab boʻlgan.

Xullas, insoniyat tarixi xilma - xil gʻoya va mafkuralarning vujudga kelishi, amaliyoti, bir-biri bilan munosabatidan iborat uzluksiz jarayondir. Bu jarayonda turli gʻoyalar u yoki bu kuchlarga xizmat qilishi, oʻziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tomon etaklashiga qarab bir-biridan farqlanadi. Ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralarga bunyodkor gʻoyalar asos boʻlsa, vayronkor gʻoyalarga tayangan mafkuralar xalqlar va davlatlarni tanazzulga yetaklaydi, odamlar uchun son-sanoqsiz kulfatlar keltiradi. Bu esa, oʻz navbatida, gʻoyaviy jarayonlar tarixini oʻrganish, ular zamiridagi mazmun - mohiyatni bilib olishni zaruriyatga aylantiradi. Vayronkor gʻoya va mafkuralarning jamiyat hayotiga salbiy taʼsiri. Sivilizatsiyalar tarixida yovuz gʻoya va tajovuzkor mafkuralar hamisha bunyodkor gʻoyalarga qarshi kurashib kelgan. Bunyodkor gʻoyaning ziddi boʻlgan vayronkor yoki buzgʻunchi gʻoya yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan gʻoyalar majmuasi boʻlib, insonlarni tubanlikga etaklaydi, jamiyatni halokatga mahkum etadi. Buzgʻunchi gʻoya va mafkuralar xalqlar boshiga soʻngsiz kulfatlar keltiradi. Bunga olis va yaqin tarixdan koʻplab misollar keltirish mumkin. Oʻrta asrlardagi salib yurishlari diniy fanatizm va eng yangi tarixdagi fashizm va bolshevizmga asos boʻlgan gʻayrinsoniy gʻoyalar shular jumlasidandir. Jahon tarixini umumlashgan tarzda bir pillapoya koʻrinishida tasavvur qilsak, uning har bir zinasini insoniyat oldida yangi imkoniyatlar va istiqbollar eshigini

ochib beruvchi taraqqiyot bosqichi deyish mumkin. Bu tarix mazmunini esa ko'p jihatdan turli ijtimoiy tabaqalar, siyosiy oqimlar, xalqlar va millatlar, alohida davlatlar va ijtimoiy tuzumlarning xilma-xil maqsad va manfaatlarini o'zida aks ettiruvchi bunyodkor va buzg'unchi g'oyalar va mafkuralarning amaliyoti, kurashi belgilaydi. Tarixiy jarayon tabiatidan kelib chiqadigan mazkur xususiyatning dialektikasi insoniyat uchun doimiy bo'lgan «ezgulik» va «yovuzlik» o'rtasidagi abadiy kurash deb atalmish muxtasar ta'rifda o'z aksini topgan.

«Ezgulik» - taraqqiyotga intiluvchi kuchlarni, insonparvarlik va yuksak axloq falsafasini, ijtimoiy adolat tamoyillari yoki «Avesto» da bayon qilingan «ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ish» ning negizini tashkil etadigan qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. «g'vuzlik» esa tarixiy reaksiya, taraqqiyot g'ildiragini orqaga burish, qora kuchlar faoliyati va hukmronligini ifodalaydi. Insoniyatning, jumladan, O'zbekistonning necha yuz yillik solnomasida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zo'rlik, kulfat urug'larini sochish va qon to'kilishiga sabab bo'lgan buzg'unchi g'oyalar va mafkuralarning halokatli ta'siri bilan bog'liq qayg'uli sahifalar ko'p. Bu g'oyalar o'zlarida siyosiy bosqinchilik va mustabidlik intilishlarni goh yashirin, goh oshkora ifodalagan holda diniy, milliy, sinfiy shiorlarni bayroq qilib maydonga chiqqanini ko'ramiz. Lekin mohiyat hamisha o'zgarmay qolavergan. Ya'ni, ular millatlar va xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, an'ana va urf - odatlarini kuch bilan o'zgartirishga, keng xalq ommasini boshqalarning siyosiy irodasiga bo'ysundirish va mafkuraviy asoratga solishga, o'zaro adovatga asoslangan ijtimoiy tartiblarni qaror toptirishga, millatga yot mafkuraviy tasavvurlarni tiqishtirishga qaratilgan. Buzg'unchi g'oyalar va mafkuralarning amalga oshirilishi millatlar va xalqlar azaliy madaniyatning emirilishiga, davlat va jamiyat hayotida salbiy hodisalarning kuchayishiga sabab bo'lgan, ko'plab xalqlarni o'z yo'lini o'zi tanlash huquqidan mahrum etgan. G'oyalar hukmronligining tamal toshi aynan qadimiy sivilizatsiyalar davrida qo'yilgan edi. Unga binoan, odatlar va taomillarga emas, balki g'oyalar yoki biror maqsadga bo'ysundirilgan muayyan tildagi inson xulq-atvorini shakllantirish mumkin edi. Lekin shu bilan bir vaqtda, qadimdanoq kishilar ongini nayrang va aldovlar vositasida, yolg'on ideallar bilan zaharlash imkoniyati ham paydo bo'ldi.

Qadimiy sivilizatsiyalarda ijobiy g'oya va qadriyatlar bilan birga, salbiy xarakterdagi mafkuralarning ham unib chiqishi uchun zamin bo'ladigan tasavvur - tushuncha maydonga kela boshlagan edi. Masalan, qadimiy Rimda bunday qadriyatlar tizimini, bir qarashda umuminsoniy qadriyatlar jumlasidan bo'lgan, vatanparvarlik tushunchasini belgilar edi. Ammo, bu tushuncha Rim xalqining xudo tomonidan alohida tanlangani, taqdirning o'zi tomonidan zafarli istilolar va Rim saltanati hududini kengaytirish

uchun safarbar qilingani to'g'risidagi soxta tasavvurlarga asoslangan edi. Soxtalik esa doimo yovuzlikga yo'l ochadi. Bunday mafkuraviy asoslar imperiyalik tafakkur tarzining shakllanishiga sabab bo'ldi. Boshqa hududlarni bosib olishga rag'batlantiruvchi ushbu g'oya keyinchalik dunyoqarashlar tizimida bir xalqning boshqa xalq tomonidan mustamlakatchilik asoratiga solinishini nafaqat ahloqiy jihatdan oqlaydigan, balki uni qahramonlik darajasiga ko'taradigan buyuk davlatchilik mafkurasining rivojlanishiga omil bo'ldi. O'rta asrlarga o'tilishi bilan, asosan Evropada, din va cherkovning roli misli ko'rilmagan darajada o'sdi. Bu davrda xudoga otashin va jazavali ishonch xukmronlik qildi va bu e'tiqod inson hayotining barcha tomonlarini, tug'ilishdan o'lishgacha bo'lgan har bir qadamini belgilab berdi. Ushbu davrda din mustabid, yagona hukmron mafkura shakli sifatida maydonga chiqdi. Bu bir tomondan, o'z diniy uyushmasi ichidagi dahriyga yoki «murtad» ga chiqarilgan shaxslarning turli bahonalar bilan ommaviy ravishda qirg'in qilinishida, ikkinchi tomondan esa, diniy va hududiy istilolarni maqsad qilib olgan xunrezlik urushlarida o'zining ayanchli ifodasini topdi. Evropaning xristian dunyosi tomonidan musulmonlarga qarshi amalga oshirilgan salib yurishlarini bu urushlarga misol qilib keltirishi mumkin. Rim papasi hokimiyati na faqat salbchilarga fatvo berdi, balki XIII asrda g'oyaviy dushmanlariga qarshi maxsus sud muassasasi - inkvizitsiya (lot. - tekshiruv, qidiruv)ni ham joriy etdi. Inkvizitsiya davrida josuslik, ayg'oqchilik, ig'vogarlik, g'oyaviy sotqinlik g'oyat avj olib, birgina Ispaniyaning oliy inkvizitori 18 yillik xizmati davrida 10220 kishini gulxanda yondirtirgan. Inkvizitsiyaning G'arbiy Evropa va keyinchalik Amerikaga ham yoyilganini hisobga olsak, buzg'unchi bir g'oyaning millionlab kishilar umriga zomin bo'lganini ko'ramiz. O'rta asrlar diniy ekstremizmi, o'z navbatida, javob reaksiyasi tarzida - antagonizmga asoslangan turli g'oyalar hamda ateizmning kuchayishiga ham sabab bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan alohida siyosiy kuchlar bunday g'oyalar va xudoga murosasizlikka asoslangan ateizmdan ham o'zlarining mafkuraviy maqsadlari yo'lida foydalandilar. G'oyalar va mustabid mafkuralar tarixida bundan foydalangan sobiq kommunistik ta'limot alohida o'rin tutadi. U tashqi jihatdan adolat idealini o'zida mujassam etgan olijanob intilishlarni asos qilib olgandek ko'rinsa-da, oxir - oqibatda mustabid jamiyatni shakllantirish mafkurasiga aylanadi. Bolshevizm bilan bir qatorda, XX asrning boshida ildizlari sotsialistik g'oyadan suv ichgan mustabid g'oya va mafkuraning boshqa shakli - fashizm (ital. Fashio - birlashma) paydo bo'ldi. Sobiq sotsialist B. Mussolini Italiyada fashistlar harakatning asoschisi bo'ldi. Germaniyada milliy satsialistik partiya tuzgan A. Gitler esa fashizimning «ma'naviy ota» siga aylandi. Fashizm II jahon urushi olovini yoqdi, 50 mln. dan ortiq kishining qirilib ketishiga sabab bo'ldi. Bizning mamlakat ham motam libosiga o'raldi. Ikkinchi Jahon urushi jabhalarida kurashga ketgan o'zbekistonlik

jangchilardan 263005 nafari halok bo'ldi, 132670 kishi dom - daraksiz ketdi, 604552 kishi nogiron bo'ldi. Bolshevizm va fashizm mafkuralari o'rtasida ko'plab o'xshash jihatlar mavjud. Ayni paytda jiddiy tafovutlar ham ko'zga tashlanadi. Asosiy farqlardan biri, bu millat omilining turlicha baholanishidir. Agar kommunistik ta'limot, xalqlarning milliy - etnik o'ziga xosliklarini yo'qotish, «proletar baynalminalligi» shiori bilan maydonga chiqqan bo'lsa, fashizm bir hukmron millatning «irqiy - etnik sofli» ni mutlaqlashtirishini targ'ib - tashviq etadi. U irqchilikning homiysi hisoblanadi.

«Rasizm» so'zi «rasa» (irq) atamasidan kelib chiqqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Evropada «insoniyat nasli» ni turli irqiy guruhlar, jumladan, «oq», «qora» va «sariq» irqqa ajratish uchun qo'llana boshladi. Irqchilik ta'limoti «oq tanli»larning afzalligi, ularning azaldan «oliy irq» etib tanlangani, boshqa irqqlarning esa «oq»larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning quyi pog'onalarida turishini «asoslab» beradi. Uning asosiy g'oyasi o'zining «ilohiy» tabiatiga ko'ra «oq» irqqlarni «quyi» irqqlar ustida xukmron qilishga d'avat etishga qaratilgan edi.

Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko'ra ajralib turuvchi kishilarga tazyiq o'tkazish, ularni xaqoratlash, urish va o'ldirish kabi harakat - xodisalarda yaqqol namoyon bo'ldi. Ijtimoiy hukmronlik shakllaridan birining mafkurasi bo'lar ekan, buyuk davlatchilik, ashaddiy shovinizm, «tanlangan» xalqlarning milliy afzalligi g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib ketdi.

Irqchilik - ko'p qiyofali. Masalan, o'zini oliy irq hisoblagan ingliz, ispan, fransuz bosqinchilari o'rta asrlar va ayniqsa, XVIII - XIX asrlarda Amerika, Avstriya, Afrika va Osiyoda erli xalqlarni ko'plab qirib tashladilar. Janubiy Afrika Respublikasi tomonidan XX asrda uzoq yillar mobaynida o'tkazib kelingan irqiy ayirmachilik siyosati - shafqatsiz irqiy tahqirlash va kamsitishda o'z ifodasini topdi. 1865 yilda AQSHda tuzilgan «Ku - kluks - klan» terroristik tashkiloti ham o'zining oshkora irqchilik yo'nalishidagi faoliyat bilan ajralib turadi. Negrlarning fuqarolik huquqlariga qarshi kurash va ularni mamlakatdan chiqarib yuborish uning asosiy g'oyasi hisoblanadi. Yana bir yovuz g'oya-terrorizm bugungi kunda ham insoniyatga katta tahdid solmoqda. Jamiyatga doimiy qo'rquv, fitna - g'alamislik muhitini vujudga keltirish, zo'ravonlik yo'li bilan jamiyat barqarorligini buzish, gunohsiz kishilar, jumladan, bolalarning xalok bo'lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi o'ldirish va portlashlar bu mudhish g'oyaning asl mohiyatini tashkil etadi. Buzg'unchi g'oyalar siyosiy tus olsa, ya'ni hokimiyatga intiluvchilarning mafkuraviy quroliga aylansa, ayniqsa, dahshatli tus oladi. Ana shunday g'oyalardan biri siyosiy terrorizm XIX asrdayoq vujudga kelgan edi. Lekin u XX yuz yillikdan keyin quloq yozdi. G'arbiy Germaniyadagi «qizil armiya» va Italiyadagi «qizil brigada» guruhlar, Ispaniyadagi basklar tashkiloti,

Olsterdagi «Inqilobiy - xaloskorlik armiyasi», Perudagi «Porloq hayot» kabi birlashmalar zamonaviy siyosiy terroristlarning birinchi avlodi edi. Keyingi yillarda dunyoning o'nlab mamlakatlarida, jumladan, bizning yosh davlatimiz chegarasiga yaqin davlatlar hududlarida ham terrorizm o'choqlari paydo bo'ldi. Ular mustaqil O'zbekistonga qarshi kuch yig'moqda. Chunonchi, Toshkentda 1999 yilda yuz bergan fevral voqealari, 2000 yil yoz oylarida Surxondaryoga Afg'onistondan o'tgan terroristik guruhlar huruji buzg'unchi siyosiy kuchlarning xalqimizni demokratik taraqqiyot yo'lidan qaytarishga bo'lgan urinishlari to'xtamaganidan guvohlik beradi. G'oya va mafkuralarni mutlaqlashtirishning salbiy oqibatlari. Tarixdan ma'lum bo'lgan real mustabid tuzumlarni qiyosiy tahlil etish ular amal qilgan mafkuralarning quyidagi umumiy xususiyatlarni hamda bu g'oyalarni amalga oshirish bilan bog'liq qator salbiy oqibatlarni aniqlash imkonini beradi. Avvalo, mustabidchilik mafkuralari o'z davlatlarida ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha sohalarini to'liq qamrab olishga, yagona dunyoqarash tizimi hukmronligini o'rnatishga intiladilar. Bu mafkuralar buyuk va yorqin o'tmishni inkor etadilar. Ular jamiyatni inqilobiy yo'l bilan yoppasiga qayta tuzish zarur va uni amalga oshirish mumkin, deb hisoblaydilar, o'zlarigacha bo'lgan qadriyatlarning barchasini yoxud ko'pchiligini bekor qilib, ularni faqat o'z tamoyillari bilan almashtirmoqchi bo'ladilar. Masalan, birinchi qarashda, uzoq o'tmishga qaytishga chaqiruvchi islom fundamentalizmi go'yoki bundan mustasnodek tuyuladi. YA'ni islom fundamen-talizmi tarix g'ildiragini o'rta asr jaholati davriga qaytarish niqobi ostida, «ijtimoiy kazarma» tipidagi bir xillashtirilgan mustabid «kelajak»ning o'zga xos andozasini taklif etadiki, unda inson fuqarolik huquqlaridan to'liq mahrum qilinadi, haqiqatda diniy terrorga duchor etiladi. Biz yuqorida bunday g'oyalarning qanday ayanchli oqibatga olib kelishini o'rta asr Evropasidagi inkvizitsiya misolida ko'rib o'tdik.

Diniy ta'limotlardan o'z maqsadlari yo'lida foydalanayotgan terroristik kuchlar faoliyatiga nazar tashlasak, ularda dunyoviy bilimlarning diniy bilimlarga zid qo'yilishi, aqidaparast bo'lmaganlarning dahriy deb e'lon qilinishini ko'ramiz.

Biroq biz yaxshi bilamizki, biz e'tiqod qilgan islom dinida ham insonga bu dunyo deb u dunyodan, u dunyo deb bu bu dunyodan voz kechmaslik, ezgulikni vojib bilgan komil inson bo'lish targ'ib qilinadi. Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, dunyoviylikning dahriylik emasligi ham Yurtboshimiz asarlarida to'la asoslab berilgan. Biroq o'z mafkurasini mutlaq haq deb bilgan kuchlar o'zlari kabi g'oyalarining ham mustabid bo'lishini istaydilar. Mustabidchilik mafkuralari «yangi jamiyat» va «yangi inson»ni vujudga keltirishni o'z maqsadi deb e'lon qiladi, bunda shaxs manfaatlari va ayniqsa, shaxs erkinligi tor hukmron tabaqa, mustabid tuzumning manfaatlariga bo'ysundiriladi. Bunda ijtimoiy tuzum «demokratiyaning oliy shakli», xalq hokimiyati shakli, deb e'lon qilinadi. Lekin bunday demokratiya xalq

irodasining amalga oshirilishi deb emas, balki hatto xalq irodasiga qarshi borishga to'g'ri kelgan taqdirda ham zo'rvonlik vositalari bilan xalq «farovonligi»ni amalga oshirish deb tushuniladi.

«Mustabidchilik mafkurasi» o'zini haqiqatning gavdalanishi va farovonlikning namoyon bo'lishi deb hisoblangani uchun ham unda har qanday fikr, har qanday boshqacha mulohazaga bartaraf etilishi lozim bo'lgan yovuzlik (ataylab qilingan yoki ataylab qilinmagan) deb qaraladi. «Mustabidchilik mafkurasi» go'yoki tanqiddan xoli, qandaydir ifodalangan ishonch ob'ektiga aylanadi. Boshqacha aytganda, bunday mafkura erkinlik, insoniy xaqiqat ustidan o'z zo'rliги va hukmronligini o'rnatadi. Siyosiy muhitda bunga hokimiyatni monopoliyalashtirish muvofiq keladi. Hokimiyat bitta partiya (yoki siyosiy xarakat)ning qo'lida to'planadi, partiyaning o'zi esa yakka rahnamoning («dohiy», «fyurer» va boshqalarni) hukmi ostiga tushib qoladi. Hukmron partiyaning davlat apparatiga o'sib chiqishi sodir bo'ladi. SHu bilan birga, jamiyatning davlatlashuvi, ya'ni davlatdan mustaqil bo'lgan ijtimoiy hayotning yo'qotilishi (yoki nihoyatda kamaytirilishi), fuqarolik jamiyatining yo'qotilishi (xususan, hukmron partiyaga bo'ysunmagan barcha boshqa partiya va jamoat tashkilotlarining taqiqlanishi)da o'z ifodasini topadi. Huquqning, qonunning roli kamsitiladi: hokimiyat qonun bilan cheklanmaydigan va qonunga bo'ysunmaydigan vakolatga ega bo'ladi, davlat huquqiy davlat bo'lmay qoladi, u iqtisodiyot sohasini ham tanho nazorat qiladi, iqtisodiyotga markazlashgan rahbarlikni qaror toptiradi (bu go'yo eng oqilona va samarali rahbarlik bo'larmish). Axborot monopoliyasi ham siyosiy va iqtisoiy hokimiyatni mutlaqlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir: «mustabid tuzum»da barcha axborot vositalari, jamiyatda muomalada bo'lib turgan axborotni mazmuni ham apparatning qattiq nazoratiga olinadi. Zo'rvonlik ishlatmasdan turib butun monopoliyalar tizimini saqlash va mustahkamlash mumkin bo'lmaydi. Shuning uchun ham davlat terrorizmi, terrorni ichki siyosatini amalga oshiirsh vositasi sifatida qo'llash «mustabidchilik tuzumlari» uchun xosdir. Turkistonda ham inqilobdan keyingi dastlabki yillarda hukumatning siyosiy terrori natijasida butun - butun ijtimoiy guruhlar va qatlamlar yo'q qilindi. SHu jumladan, mustabid tuzumning g'ayri insoniy xatti - harakatlari tufayli qariyb 2,5 million kishi yoki aholining deyarli yarmi mahv etilgan edi. O'zbekistonda faqat 1937-1953 yillar maboynida (bundan urush yillari mustasno) ittifoq mustabid mashinasi qariyb 100 ming kishini qatog'on qildi, ulardan 13 ming kishi otib tashlandi.

Mustabid davlatlarning o'ziga xos boshqa xarakterli xususiyati jamiyatning harbiylashtirilishi, «harbiy lager» yoki «qamal qilingan qal'a»dan iborat g'oyaviy - psixologik vaziyatni vujudga keltirishdan iboratdir. Bunda mamlakat ichida harbiy fanatizm

vaziyati avj oldirilibgina qolmasdan, shu bilan birga, agressiv tashqi siyosat ham amalga oshiriladi. Bu siyosat harbiy - hududiy va mafkuraviy bosqinchilik qilishga, o'zining mustabidchilik tartiblarini keng miqyosda qaror toptirishga qaratiladi.

Lekin tarix xaqiqati shundan iboratki, mustabidchilik mafkuralarining turli andozalari va ularning loyihalari asosida yaratilgan demokratiyaga qarshi tuzumlar pirovard natijada halokatga uchrashi muqarrardir. Buni sobiq sotsialistik mamlakatlar, sovet davlati, gitlerchilar Germaniyasi va fashistlar Italiyasi, Kampuchiyadagi Pol Pot rejimi kabi mutlaq haqiqatni da'vo qiluvchi mafkuralarning tarixi istiqbolsiz bo'lgani ham yaqqol namoyish etdi.

Mavzuga xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, inson hayoti uning ongida kechgan fikrlar kurashi, jamiyat hayoti g'oyalar, mafkuralar kurashidan iboratdir. Shu sababli Prezidentimiz asarlarida «Mafkura bo'lmasa har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarrarligi», jamiyatda mafkuraviy, insonlar ongida fikriy bo'shliqga yo'l qo'yib bo'lmasligi konsepsiyasining ishlab chiqilishi, biz o'rganayotgan fanning tamal toshlaridan biridir. Hozirgi zamonda bunyodkor va buzg'unchi g'oyalarning kurashi ayon ko'rinib turibdi. Biroq g'oyaga qarshi, u qanchalik yovuz bo'lmasin qurol bilan kurashish, faqat yovuzlikni tug'diradi. Shu sababli Islom Karimov bayon etgan: «Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish» tamoyili hozirgi davrda na faqat mustaqil mamlakatimiz, balki butun jahon xalqlarining tinchligi, farovonligi mamlakatlari taraqqiyotida ulkan ahamiyatga ega.

1.2 Sivilizatsiyaning vujudga kelishida, ilim- fanning dastlabki chashmalari, taraqqiyotning ilmiy, nazariy yutuklarining inson xayotini yuksalishiga tasiri.

Xozirgi kundagi yangilanish, poklanish va tavba – tazarru jarayoni talablari O‘rta va Yaqin Sharq xalqlarining ilg‘or madaniy, ijtimoiy falsafiy merosi, undagi umuminsoniy, axloqiy qadriyatlari, xurfiylik va ayniqsa diniy – oriflik an‘analarini yanada chuqurroq va har tomonlama o‘rganish kun tartibiga qo‘yilmoqda. Bu bir tomondan O‘rta va Yaqin Sharq, xususan Turkiston xalqlarining madaniyat taraqqiyotiga qo‘shgan xissasini kamsituvchi, mensimovchi, irqchilikdan iborat nazariyalarni ilmiy asossizligi va bir tomonlamaligini ko‘rsatib berishga hizmat qiladi. Ikkinchi tomondan sharq xalqlarining o‘rta asrlardagi ilg‘or ma‘naviy axloqiy madaniy va ilmiy merosidagi insonparvarlik muhabbat do‘stlik mehnatni sevish odamiylik butun jonzot tabiatga muqaddas ma‘no beruvchi mehr - muhabbat asrab – avaylab munosabatda bo‘lish, insonni ro‘iy zaminining Gultoji deb qarash, tabiat va insonga yangicha munosabatda bo‘lish g‘oyalari, an‘analari jamiyatimiz kishilarini ma‘naviy ekalogiya madaniyati ruhida tarbiyalash, ularni poklash uchun favqulodda axamiyatga ega. Ammo bu sohada shu paytgacha qilib kelingan va amalgam oshirilayotgan marksistik va Sho‘ro tadqiqot adabiyotidagi ishlar hali Turkistonda, an‘anaviy Movorounnaxr Xuroson va eronda shakllangan umuminsoniy madaniyat, “xayotbaxsh xurfiylik” (F.Engels) ning ichki mazmuni nima,u qanday shakllarda namoyon bo‘lgan va qaysi asosiy muammolarni xal qilgan,qaysi ijtimoiy,ma‘naviy kanallar orqali yangi davr Ovrupa madaniyati, ilm-fani va falsafasi taraqqiyotiga, umuman umumbashariy madaniyati, qadriyatlarni, xozirgi zamon ilmiy va insonparvar tafakkurini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatgan degan va boshqa qator dolzarb masalalarga qoniqarli javob bera olmaydi.

Ushbu mavzudan Turkistondan VIII-XIII asrlarda vujudga kelgan va rivojlangan umuminsoniy madaniyat, ilm-fan, falsafa, badiiyat, xurfiylik sanat va xalq og‘zaki ijodi, diniy-axloqiy fikr, ijtimoiy xayoliy g‘oyalar (utopiyalar) shakllanishining ijtimoiy-tarixiy va g‘oyaviy ildizlari, nazariy asoslari, asosiy muammolari komponentlari va namoyon bo‘lish shakllari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.Turkiston xalqlari madaniyati taraqqiyoti eng muxim manbalar-Xorazmiy, Farg‘oniy, Roziy, Farobiy Buxoriy, Termiziy, Ibn-Sino va boshqa daxo mutaffakirlarimizning tabiiy-ilmiy, diniy-falsafiy, axloqiy-badiiy merosi, ular xaqidagi tadqiqotlar asosida yoritiladi.

VIII-XIII asrlarda Turkiston xalqlari xayotbaxsh madaniyati dunyoviy turmush tarsi va qadriyatlarining shakllanishining asosiy ijtimoiy tarixiy sabablari O‘rta va Yaqin Sharqda xususan Turkistonda vujudga kelgan yangi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy vaziyat, yagona ilmiy, diniy va ijtimoiy muomala til-arab tilining mavqeyi qozonishi nisbiy osoyishtalik,

barqarorlik, diniy-mafkuraviy plyuralizmning qaror topishi bo'ldi. Yana aytadigan bo'lsak, arab xalifaligining vujudga kelishi bu yerda melodning III-IV asrlarida shakllana boshlagan feodal jamiyatning erga bo'lgan feodal mulkchilikning yanada rivojlanish (ikta tamlik, ikta al-ijara, al-istig'al) va ozod dexqonlarning ersizlanib feodal asoratga tushishi, yer-suvga qaramligining kuchayishi, keng mexnatkashlar ommasining og'ir ijtimoiy va manaviy xayoti norozilik va oppzision kayfiyatlarni, aksil feodal xarakatlarni ijtimoiy bezovtalikni tug'dirar edi. Bu esa VIII asr oxirlaridayoq arab xalifaligida feodal tarqoqlikka, mustaqillikka intilishlarning kuchayishiga, va nixoyat, IX asrning o'rtalariga kelganda Movaraunnaxr, Xuroson va eronda avval toxiriylar (821-873 yy), sal keyinroq saffariylar, somoniylar (841-944 yy), buvayxiylar, xamadoniylar, kakvayxiylar va x.k. sulolalarning qaror topishiga olib keldi. Bunday maxalliy amirlik, sultonlik va poshsholiklar Shom-Iroqda, Misrda, Yamanda ham, Shimoliy Afrika qirg'oqlarida, Mag'ribda-Kordova, Sevilyada va boshqa joylarda vujudga keldi. Faqat Movaraunnaxr, Xuroson va eronning o'zida keyinchalik g'aznaviylar, qoraxoniylar, saljuqiylar, xorazmshoxlar, ularga u yoki bu darajada qaram bo'lgan, biroq o'zicha mustaqil bo'lgan idora usullari xam mavjud edi.

Toxiriylar, saffariylar, somoniylar, g'aznaviylar, qoraxoniylar, saljuqiylar, xorazmshoxlar bu o'lkalarda III-IV asrlarda boshlangan, lekin arablar bosqinchiligi davrida birmuncha sekinlashgan feodallashish jarayonining qaytadan jonlanganligini o'zining gullab-yashnagan, rivojlangan feodalizm bosqichiga kirayotganini bildirar ekan. Bu rivojlangan feodalizm jamiyati yuqorida sanab o'tilgan Movaraunnaxr, Xuroson va eron, hamda boshqa mintaqalari xalqlarining dastlabki o'z davlatchilik shakllarni vujudga keltirdi. Bu davlatlar ummaviylar, abbosiylar xalifaligiga nomigagina qaram bo'lsada, aslida deyarli mustaqil edilar. Bularning hammasi Turkiston xalqlarining iqtisodiy, siyosiy va madaniy soxalarda nisbatan juda tez rivojlanishiga yo'l ochdi. Umumiy bozor bir-butun xalq xo'jaligi yuksak ishlab-chiqarish munosabatlari vujudga keldi. Xitoy, Xindiston bilan quruqlik va suv yo'llari orqali bo'ladigan savdo va boshqa aloqalarni yo'lga qo'yish, Vizantiya-Rim dunyosi bilan O'rta va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida tranzit savdo aloqalarni qo'lga olish, siyosiy-xarbiy aloqalarni kuchaytirishga erishildi. Italiyaning Venesiya, Genuya kabi shaharlari, Vizantiya chegaralarida to Xindistonning ichki o'lkalarida arab-musulmon savdo-sotiq, sarroflik (moliyabank) faktoriyalari vujudga keltirildi. Bu ichki va tashqi bozorni faollashtirishga, dinor, dirxamning quvvatini kuchaytirishga umuman ishlab chiqarishning o'sishiga, soliqlarning behisob yig'ilishi, aholi turmush darajasining ko'tarilishiga, ma'naviy xayotning, qiziqishlarning gulkirab o'sishi, kengayishiga ma'naviy ehtiyoj va talablarning nafislanishiga olib keldi. Mehnatkashlar ommasi juda og'ir feodal zulm natijasida etishtiradigan moddiy va ma'naviy boyliklar ko'p miqdordagi qishloq xo'jalik, hunarmandchilik, chorva va bog'dorchilik mahsulotlari, behusob qimmatbaho toshlar, zebiziyatlar, taqinchoqlar, tog'-konchilik ne'matlari endilikda o'sha erlarning o'zida qoladigan va

ishlatiladigan bo'ldi. Eng asosiysi, O'rta va Yaqin Sharq xalqlari arab xalifaligi markaziy xokimiyatiga etishtirib beradigan yuz minglab qullar, dehqonlar, hunarmandlar, askarlar, siyosatchu, savdogar va boshqa uddaburon kishilar, yani asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar mahalliy o'lkalaarning o'zida qoladigan bo'ldi. Bundan tashqari mahalliy davlatlar o'z chegaralarida pul muomalasi, savdo-sotiq, madaniy, siyosiy va tashqi aloqalar muomalalarini qo'lga olib, ularni yo'lga qo'yib, xavfsizligini va moliyaviy ta'minotining kafolatini yaratib o'z davlatlarining, hamda butun arab musulmon dunyosining bir tekis gullab-yashnashi, taraqqiy etishiga zarur bo'lgan barcha tashqi va ichki shart-sharoitlarini vujudga keltira boshlagan edilar. Natijada VIII-XIII asrlarda butun Turkiston o'lkasida iqtisodiy va siyosiy ahvol ancha barqarorlashgan dehqonchilik, hunarmandchilik va ijtimoiy, ma'naviy xayotning barcha sohalarida keskin ko'tarilish, jonlanish, taraqqiyotning umumiy tezanishi ro'y berdi. Bularning hammasi mo'g'ullarning bosqini bilan bog'liq vaqtincha o'tkinchi halokatlarga qaramay musulmon Sharqining g'arbdan ishlab-chiqarishning barcha parametrlari bo'yicha suvda, quruqlikdagi savdo-sotiq, harbiy-siyosiy, diplomatik aloqalarda, ayniqsa madaniyatda, o'quv tahsilning yo'lga qo'yilishi, umumiy dunyoqarashning kengligi, chuqurligi va dunyoviyligi, insonparvarlik va rasionalizmning yetakchiligi kabi jihatlariga ko'ra butun klassik o'rta asrlarda ustun bo'lib qolishiga olib kelgan edi. Bu davrda, shubhasiz, Turkistondagi arab musulmon madaniyatining muhim va tarkibiy qismi bo'lmish, islom dini, Quron va Xadis, Siralar, Tafsirchilar, shariyat qonun - qoidalarini, nazariyoti va amaliyotini ishlab chiqish, voizlik, hotiblik, arabiy xattotlik, qorilik, namoz taxorat tartiblari oila va jamiyatni qurish ham juda keng rivoj topdi, gullab yashnadi.

Islom tarqalib mustahkamlangan VII – VIII asrlarda arab musulmon madaniyati asosan qur'onni yod olish, o'rganish sharxlash, uni voizlik, hotiblik orqali targ'ib va tashviq etish, Muhammad s.a.v. ning hayoti va xatti – xarakatlari, eng muhim ko'rsatmalari to'g'risidagi hadislarini to'plash, sistemalashtirish, sharxlash, ularning ishonchli isnodlarini topish, tarixlar (Ibn Hishom, Ibn Ishoq, Ibn Said, Al – Vohidiy Sira va tarixlari) o'qish yetakchi bo'lgan, tafsirlar tuzishga kirishilgan. Madina, Makka Qufa, Basra, Damashq, Bag'dod va boshqa shaharlarda dastlabki musulmonchilik diniy-madaniy va me'morchilik obidalari (Bayt-ul-Xikma, payg'ambar qabri, Kaba ibodatxonasini- yani Baytullohni tamirlash, masjid, maqbaralar, shahidlar qo'yilgan joylar) vujudga kela boshlagan edi. Kufa va Basrada arab tili naxfi va sarfi maktablari (Xalil ibn Axmad, Musanna, Sibavayhiy va boshqalar) musulmonchilik jamoasining madaniy xayoti, aqidalari, marosim va talablarini o'rganish keng faoliyat ko'rsata boshlagan edi. Tahorat, tavof qilishning, xajga borishning son-sanoqsiz tartiblari, kiyim-kechak, shaxsiy, oilaviy xayot va jamoatchilik o'rtasida o'zni tutish, davlat arkonlari, ma'murlar bilan munosabatlar, raiyatning burch va majburiyatlarini ipidan – ignasigacha ishlab chiqarish, ro'za, zakot qoidalari, marakalarini o'tkazish tartibotlari ishlab

chiqila boshlagan. IX – X asrlarda esa Imomlar Abu Hanifa, Ibn Anas, Abu YUsof, Muhammad ash – Shaybon, Shofe’iy, Ibn Hanballar mujtahidlik ko’rsatib islom va shariatdagi asosiy to’rt mazxablarni tuzdilar. Imomlar Ibn Mojo, Abu Dovud, Abu Isa at – Termiziy, Ismoil Buhoriy, Nasa’iy va boshqa mo’tabar siymolar payg’ambar xadislarni yig’ish, sistemalashtirish, ularning isnodlarini saxixlarini aniqlab, ilmiy tadqiq qildilar. Bundan tashqari xadischilik san’ati Tabariy, Bag’aviy va boshqalar tomonidan yanada yuksak bosqichga ko’tarildi. Ayni paytda Tabariy, Sa’olibiy, Bayzoviy, Faxriddin Roziy, Zamaxshariy, Abduraxmon al – Ijjiy va boshqalar Qur’on tafsirchiligini san’at darajasiga ko’tardilar. Arab – musulmon madaniyatining eng muhim qismini diniy qavmlar, mazxab va oqimlarni, turli mafkuraviy - g’oyaviy ta’limotlarni qiyosiy o’rganishda Ibn an – Nodim, Xorazmiy, al – Vositiy Farg’oniy, imomlar Abu – l – Xasan al – Ashariy, Bag’dodiy, an – Navbaxtiy, Beruniy, Ibn Xazm Muxammad ash – SHaxristoniy, Muxammad ash – SHaxrizuriy, Muxammad al – Faxriy va boshqalar tomonidan fundamental ilmiy – nazariy natijalarga erishdilar. Bundan tashqari Abu – l – Xasan al – Ashariy, Abu Mansur Maturidiy Samarqandiy, Boqiloniy, Abu Xomid al – Razzoliy, Faxriddin Roziy, Abduraxmon al – Ijjiy, Sa’duddin Taftazoniy, Abu Hafs Umar an – Nasafiy va boshqa qator aqidlar islomning ilohiyot falsafasini – Kalomini ishlab chiqib, shariat aqidaviy – dunyoqarash asoslariga shunday vaqt, shart – sharoit, taraqqiyot suratlariga moslasha oladigan yo’nalish berdilarki bu islom, Kalom “ xukmronlik qilgan “ o’rta asr arab musulmon madaniyati, ma’naviy hayoti, ayniqsa diniymafkurasi o’z davri uchun misli ko’rilmagan g’oya va qarashlar, e’tiqodlarni teng mavqe’ligi, e’tiqodiy bag’ri kenglik va sabr – toqatlilik, xurfikrlilikni tug’diradi. Xuddi mana shu e’tiqodiy bag’rikenglik tufayli an – Nazzom, Joxiz, Abu – l – A’lo al – Maarriylarning o’z e’tiroflariga ko’ra musulmonu – g’arb, nestoriyu – yaxudiy, buddachiyu – manixeylar bir majlisda, bir dasturxon atrofida eb – ichib, qattiq munozara qilib, xaqiqatni aniqlashda ma’rifatli baxs – munozaralar olib bora olganlar. Mana shunday jiddiy metodologik va mafkuraviy keng qamrovlilik arab – musulmon madaniyatining diniy komponentida xam dunyoviy rasioanalistik va insonparvarlik mayllari kuchaydi, umumbashariy ahamiyat kasb eta boshladi. Islom Kalomi yaxudiy va nasoro dinlari, jahon diniy – falsafiy fikri, madaniyati manaviy hayotida – G’arbiy Ovrupo ilohiyot falsafasi taraqqiyotiga juda katta ta’sir ko’rsatdi. Hususan Abu – l – Xasan al – Ashariy, Abu – l – Qodir al – Bag’dodiy, Abu Xomid al – G’azzoliylar, Ulug’ Al’bert, Foma Akvinskiy, U.Okkam, V.Overnskiy, Siger Barabantskiy va boshqalar uchun mo’tabar ma’naviy ustozlar sanalgan, umuman rasionalizm va insonparvarlik mayllarining qaytadan jonlanishiga, Uyg’onish davrining asosiy g’oyalari bo’lib, qolishlariga turtki berganlar. Shu bilan birgalikda, arab musulmon madaniyatining, islom va shariatning siyosiy davlat tuzumi konsepsiyasi(al-Mavardiy), huquqiy sistemasi-Shariyat (Quduriy, Marg’inoniy-“Hidoya) ishlab chiqilib, nihoyasiga etkazildi (XII asr). Jahon Huquqshunoslikda katta o’rin tutgan, arab-musulmon

dunyosi huquqchiligi sistemasi-Shariatni balogʻat darajasidagi mukammallikka etkazgan “Burxon-ud-din” (yani “Islom va Shariatning rad qilib boʻlmaydigan, mutloq isboti”) fahrli unvoni sohibi Abu- l- Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abd- ul- Jalil al- Fargʻoniy ar- Rishtoni al- Margʻinoniy (vaf. 1497y) dir. Margʻinoniy mashhur huquqshunoslar sulolasidan etishib chiqqan, Rishon, Margʻinon, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda eng buyuk faqihlardan fiqhni oʻrgangan. U Najmuddin Abu-l- Hafs Umar ibn Muhammad al-nasafiy (vaf.XII asr). Ibn Maʼoz “as- Sadri ash- SHahid” Xusomiddin Umar ibn Abdulloh ibn Umar va Abu Umar Usmon ibn Ali al-Poykandiy kabi faqihlar ustozligida voyaga etgan. Hadis ilmini ulugʻ muhaddis Abu Isa at- Termiziy (vaf.892y) hadislari asosida Ziyo- ud- dun Abu Muhammad Sayid ibn Asad davrasida, hamda al-Hasan ibn Ali al- Margʻinoniy qoʻlida oʻrgangan va asta-sekin fiq ilmiga oʻtgan. Uning ulugʻ faqih boʻlib etishishida Shariyat nazariyotchilari Abu Hanifa, Muhammad ash- Shaybon, ayniqsa Imom al- Quduriy (vaf.1029 y) va uning “al- muhtasar” nomli SHariyatda juda moʻtabar hisoblanadigan manbaviy kitobi asosida roʻl oʻynagan. Uning asosiy asarlari: Nashr al- mazhab : Kita but- Tajnis: al-Mazid: Kitab- ul- faraiz: Muhtarat –un- navazil: Mansih- ul- xajj: Sharh –ul- Jome- ul – kabir: Bidayat –ul- mutadiy (8 jild), uning muhtasari hisoblanmish 4 jildlik “al- Xidoya fi- l- furu” yoki “al- Hidoya fi- sh- sharh- ul- bidaya”.

Tadqiqotchilar Margʻinoniyning shoh asarlaridan biri “al- Hidoya” ning mashhur boʻlib ketishining sabablarini bu kitoblarda berilgan qozilar uchun kifoya qiluvchi nazariy qarashlar, fatvolar, hukumlarning qisqa, loʻnda va nihoyatda chiroyli shakllarda balogʻatga etkazilganligida deb bilishadi. “al- Hidoya” oʻrta asrlarda ham, xozirgi kunlarda ham nafaqat shariyat Qomusi, Qonun chiqarish asosi, balki umuman har qanday huquqiy taʼlim va tahsilning ibtidosi sifatida shariyatdagi hanafiya huquqiy maktabiga ergashuvchi, unga amal qiluvchilar uchungina emas, balki SHariyatdagi barcha mazxablar uchun ham etalon- andaza manbaadir. “Al- Xidoya” va umuman oʻzining butun huquqiy-ilmiy merosida Margʻinoniy Shariyat huquqchiligini sistemalashtirib , quyidagi yoʻnalishlarda nazariy-metodologik yechimlar beradi :

1. Ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asoslarini oʻrganish.
2. Mulkchilikning turli shakllari – davlat, hususiy va shaxsiy mulkchilik shakllari, umuman moliyaviy faoliyatning konstitutsiyaviy asoslarini oʻrganish.
3. Jinoyat va jazoning ijtimoiy va huquqiy hodisalar sifatida huquqiy hodisalar sifatidab huquqiy maqomini tadbiq etish .
4. Fuqarolik huquqi nazariyasi amaliyotini oʻrganish.
5. Qozilik va prosessual qoidalar tartiboti, tizimiva tarkibini oʻrgnish va h.k.

Margʻinoniyning va umuman Shariyatning huquqiy merosini, demokratik qadriyatlarini va ananalarini oʻrganish mustaqillikka erishgan xalqimiz, davlatimiz, millatimizda siyosiy ong , madaniyat, huquqiy xotirani tiklash, qonunchilik toʻgʻrisida xalqimiz, millatimizga hos boʻlgan

zukkolik , oqillik va qattiylikni jonlantirishga va demak hozirgi zamon huquqiy jamiyatini qurish ishiga xizmat qiladi. Oʻrta asr arab-musulmon jamiyati, davlati, oilasi, umuman raʼiyyalarning siyosiy va madaniy, ijtimoiy, ahloqiy, huquqiy munosabatlari, dunyoviy qadriyatlari, talab va majburiyatlariga siyosiy va huquqiy, diniy asoslari yaratib berildi. Endilikda islom faqat diniy etiqodnigina emas, balki umuman musulmon jamiyati fuqarolarining turmush tarsi, ruhiyati, qadriyatlari, talab va majburiyatlariga siyosiy va bhuquqiy, diniy asoslar yaratib berildi . Endilikda islom faqat diniy etiqodnigina emas, balki umuman musulmon jamiyati fuqarolarning turmush tarsi, ruhiyati, qadriyatlari, ongi va tafakkuri, huquqiy- ahloqiy munosabatlarning majmuisi sifatida oʻzining juda keng ijtimoiy, ilmiy, tarbiyaviy, ahloqiy , madaniy-komunikativ funksiyalarini bajara boshladi. Xozirgi islomdagi zamona, shart-sharoitlarga moslasha olish qobiliyatning gʻoyaviy-gnoseologik ildizlari ayni mana shu olib qaralayotgan davrda shakllangan. Oʻrta va Yaqin Sharq xalqlari umuminsoniy madaniyatning , umuman oʻrta asr arab- musulmon madaniyatning ijtimoiy milliy, madaniy bir-butunligi Quroni Karim, Xadisi Sharifb va Hidoyai muqaddasdagi quyida keltiriladigan suralar, oyatlar, hadislar, shariat koʻrsatmalarida oʻz aksini topgan. Quroni Karimda marhamat qilinadi: “Bandalaringa aytinki, ular eng goʻzal soʻzlardan soʻzlashsinlar”. “Darhaqiqat, Biz Odam bolalarini aziz- mukarram qildik va ularni barru- bahrda- quruqlik va dengizda chiqarib qoʻydik, hamda ularga halol- pok narsalardan rizqu-roʻz berdik va ularni oʻzimiz yaratgan juda koʻp jonzotlardan afzal – ustun qilib qoʻydik”; “Zinoga yaqinlashmanglar! Chunki buzuqlikdir- eng yomon yoʻldir”; “... oʻlchagan vaqtlaringizda oʻlchovni toʻla toʻkis qilinglar va toʻgʻri tarozida tortinglar!”; “Er yuzida kibr- xavo bilan yurmagin! Chunki sen hargiz erni teshib ketolmaysan va boʻyi- bastda togʻlarga etolmaysan” . “Ey moʻminlar, sizlarga rizq qilib berganimiz – pokiza narsalardan englar ... U sizlarga faqatgina oʻlaksa, qonni, toʻngʻiz goʻshtini va Ollohdan oʻzgaga atalib suyilgan narsalarnigina harom qiladi. Endi kimki zolim va haddan oshmagan hoida nichir vaziyatda qolsa gunohkor boʻlmaydi” ... U koʻtariluvchi va koʻtarilmaydigan bogʻlarni , hurmozorlarni va mevalari xilma-xil boʻlgan ekinlari , bir-biriga oʻhshagan va oʻhshamagan zaytun va anorlarni yaratgan zotdir. Mevalaganda mevasidan englar, oʻrim- terim kunida haqini beringlar va isrof qilmanglar!... molini qarindosh urugʻlariga, etim- esirlarga, miskin-bechoralarga, yoʻlovchi- musofirlarga, tilanchi gadolarga va qullarni ozod qilish yoʻlida beradigan, ... ahdlashganlarida ahdlariga vafo qiluvchilar va xususan ogʻir-engil kunlarda va jangu- jadal paytida sabr- toqat qiluvchilar yahshi kishilarda”; “Odamlarni aldab fitnaga solish oʻldirishdan yomonroqdir...”; “Sizdan aroq va qimor haqida soʻraydilar. Ayting: “Bularda katta gunoh va odamlar uchun foydalari bordir. Bularning gunohi foydasidan kattadir”: “Olloh bayni halol, sudhoʻrlikni harom qilgan”; iymon keltirib, yahshi amallar qilgan zotlarga esa ajrlarini komil suratda berur. Olloh zulm qiluvchilarni sevmaydi”; “Olloh hech kimga zulm qilishni

istamaydi”;... “shubhasiz, zolim kimsalar najot topmaslar”... etimlarga mollarini beringlar va siz uchun nopok bo‘lgan pok narsalarga almashtirib olmangiz! So‘ng, ularni mollarini o‘zingizning molingizga qo‘shib emanglar! Zero, bu katta gunoh bo‘lgan ishdir. Agar etim qizlarga adolat qila olmaslikdan qo‘rqsangiz, sizlar uchun xalol bo‘lgan ayollarga ikkita, uchta, to‘rttadan uylanaveringlar. Endi agar adolat qila olmaslikdan qo‘rqsangiz bir ayolga yoki qo‘l ostingizdagi cho‘ri bilan (kifoyalaning). Mana shu jabru- zulmga o‘tib ketmasligingizga yaqinroq ishdir”;... Siz hargiz: “Oллоh zolim kimsalarning qilayotgan amallaridan g‘ofil” deb o‘ylamangiz! Faqat Oллоh ularni ko‘zlari qotib qoladigan kuniga qoldirmoqda xolos”. “Qachon birovlariga qiz hushhabar berilsa, g‘azabga to‘lib, yuzlari qorayib ketar. Va u ho‘rlagan holida olib qolish yoki tuproqqa qorish, bu- hushhabar berilgan narsaning “yomon” ligidan odamlardan yashirilib olur. Ogoh bo‘lingizkim, ular eng yomon hukm chiqarurlar”; “Inson yahshilik so‘rab duo qilgani kabi, yomonlik tilab ham duo qilur. Inson shoshqaloqdir... Biz xar bir insonning amalini bo‘yinga ilib qo‘ygandirmiz. Parvardigoringiz... ota-onaga yahshilik qilishlaringizni amrettdi. Agar ularning birovi yoki har ikkisi sening qo‘l ostingda keksalik yoshiga etsalar, ularga qarab “uf” tortma va ularning ... qaytarma! Ularga yahshi so‘z ayt! Ular uchun, mehribonlik bilan, horlik qanotini past tut- hokisor bo‘l va; - “Parvardigorim, meni go‘daklik chog‘imdan tarbiyalab o‘stirg‘nlaridik, sen xam ularga rahm- shafqat qilgin”... bollaringizni yo‘qchilikdan qo‘rqib o‘ldirmangizlar- ularga xam, sizlarga xam Biz O‘zimiz rizq berurmiz. Ularni o‘ldirmoq, shak- shubxasiz, katta gunohdir. Zinoga yaqinlashmanglar! Chunki buzuqlikdir- eng yomon yo‘ldir”.

Ko‘rinib turibdiki Quroni Karimda musulmonlar jamoasi turmush tarzi, ruhiyati, burch va majburiyatlarini, odob- ahloq madaniyatini, huquqiy munosabatlarni birinchi navbatda insonparvarlik va anchagina hayotiy samaralik nuqtayi -nazaridan aniqlab berildi. Ayni paytda, Quroni Karimda barcha ijtimoiy-oilaviy- intim munisabatlar – insonning oллоhga va boshqa insonlarga bo‘lgan munosabatlari ana shu yuksak insonparvarlikni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan adolat asosida qurilishi, adolatga Oллоhning xam, insonlarning ham birdek rioya etishi zarurligi g‘oyasi qat’iy ifodalangan. Shu bilan birga Quroni Karimda quron, Muxammad s.o.a.v. ning barcha arab va arab bo‘lmaganlar uchun haq, ma’rifat yo‘liga boshlash, ayniqsa musulmonlikni qabul qilmagan qavm va millatlar bilan bo‘lgan munisabatlarni Aql, Insonparvarlik va adolat yuzasidan qurishdan iborat ulug‘ vazifasi ko‘rsatilgan. “Bas, o‘zing yahshi bilmagan narsa haqida also Mendan so‘ramagin!... “Dinga zo‘rlab (kiritish) yo‘qdir. (Zero) xaq yo‘l zalolatdan ajrab bo‘ldi”: “Oллоh mo‘minlarning do‘stidir. Ularni qorong‘u zulmatlardan yorug‘lik – nurga chiqaradi”: “Dinsiz kimsalar bir- birlariga do‘st- xamkordirlar. Agar amal qilmasangizlar, erda fitna va katta fasod bo‘lur”: “(Ey Muxammad) agar mushriklardan birontasi sizdan ximoya so‘rasa, bas, uni ximoya qiling, toki Oллоhning kalomini

eshitsin. So'ng uni o'zi uchun tinch bo'lgan joyga etkazib qo'ying. Bu ularning bilmaydigan qavm bo'lganlari uchundur"; "Har bir millat uchun payg'ambar bo'lur"; Agar parvardigoringiz hohlasa edi, butun er yuzidagi barcha kishilar imon keltirgan bo'lur edilar. Ahir siz odamlarni mo'min bo'lishga majbur qilurmisiz, Ollohning iznu irodasisiz hech bir jon mo'min bo'la olmos"; "... biz sizlarni o'zingiz istamagan holda majbur qila olamizmi?!... va men imon keltirmagan kishilarni quvmayman ham"; "Payg'ambarlar zimmasida faqat ochiq-oydin etkazish bordir"; "(Ey Muxammad), Parvardigoringizning yolli- diniga donolik va chiroyli pand- nasihat bilan da'vat qiling! Ular bilan eng go'zal yo'lda mujodala- munozara qiling"; "Ayting"; (Bu Qur'on) Parvardigorning tomonidan (kelgan) Haqiqatdir. Bas, hohlagan kishi imon keltirsin, hohlagan kimsa kofir bo'lsin"; (Ey insonlar), sizlarning millatingiz- diningiz, haqiqatda bir dindir". Bu insonparvarlik va hayotiy yo'nalish mohiyatan, va ayniqsa amaliy jihatdan Muxammad s.o.a.v. ning muhim ko'rsatmalari, o'git va yo'l- yo'riqlari, hamda turmush tarzi, odat va qiliqlari haqidagi eng mo'tabar Hadis Sharifalarda o'z hududini qo'shni mamlakatlarni bosib, qo'shib olish hisobiga kengaytirib borayotgan arab- musulmon jamiyati uchun yangi, kutilmagan, qadimiy va jozibali, qonunlashtirgan boshqa qadimgi xalqlarning turmush tarsi talablari, urf- odatlari, turli va qarama- qarshi diniy, dunyoviy va orifona e'tiqotlari, madaniyatlariga Qur'onidan chekinmagan holda moslashish, undagi xayotiy va insonparvarlik yo'nalishini yanada chuqurlashtiradigan, takomilga etkazadigan fatvo- xulosalar "Olloh rasuli hadisi sharifalari" tarzida, dini islom, shariat nuqtayi- nazaridan qonunlashtirib berilgan edi. Islomni endigina qabul qila boshlaganlarni olloh oldida haq huquqlarda, imtiyoz va majburiyatlarda arablar bilan barobar qilish, arablarning Qur'onda ifodalangan urug'- qabilachilik madaniyati, urf- odatlari va qadriyatlaridan ustun va ularga qarshi turgan Misr, Falastin, Shom, Iroq, Vizantiya, eron, Huroson va Movaraunnaxr kabi boshqa rivojlangan mamlakatlarda vujudga kelgan shu'ubiya tipidagi islom uchun ma'naviy- ruhiy jihatdan xavfli bo'lgan harakatlarning, ma'rifatchilik oqimlarining ta'sirini bartaraf qilish milliy-separatistik siyosiy intilishlarni mafkuravuy asoslardan mahrum qilish, ularni islom, shariat manfaatlariga xizmat qildirish uchun Xadisi Sharifni to'plash, sistemalashtirish, isnodlarini sahilashtirish jarayonlarida ko'p yangi imkoniyatlarni ochar edi. Imomlar abu Hanifa, uning shogirdlari Abu Yusuf al- Harojij, Muxammad ash- Shaybon, Imom Shofe'iy va boshqalar rasionalistik Ra'y, Qiyos, Aqliy va Ijmo prinsiplarini islom aqidaviy ta'limoy va marosimchiligi, shariyat asoslarini tadqiq qilish, yanada rivojlantirishda manbaa deb e'tirof etilishiga olib keldi. (I.Goldser, A.E.Smidt). Hadisi Shariflarda musulmon jamoasi xayotining barcha tomonlari bo'yicha mufassal ko'rsatmalari bor, bu erda ularning hammasini tahlil qilib bo'lmaydi. SHuning uchun biz ulardagi madaniyat, ilm- fan falsafa taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lganlarini diqqatingizga havola etamiz. "Ilmni Chinda bo'lsa ham qidirib top"; "Olimning siyohi shahid

qonidan a'loroqdir"; "Ilm olish har- bir musulmon er va xotin uchun farzdir"; Ilmni mushriklar og'zidan bo'lsa ham o'rganinglar"; Ilmga beshikdan to qabrga kirgunlarincha intilingiz"; "Er yuzidagi ulamolar bamisoli osmondagi yulduzlar kabidir. Erda ham, suvda ham ularga qarab yo'l topiladi. Yulduzlar botsa, yo'lgahilar adashishi mumkin"; "Ilmni o'rganish har bir mo'min uchun farzdir. Ilm tolibi uchun xamma narsa hatto dengizdagi baliqlar ham gunohini so'rab istig'for aytadi"; "YOshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir"; "Mening nazarimda ibodatga qaraganda ilmning fazilati ortiqdir. Dindagi eng yahshi hislat – bu taqvodorlikdir";

"Ilmga nisbatan go'yo cho'pon kabi posbon bo'linglar, lekin ilmni faqat rivoyat qiluvchi bo'lmanglar"; Kishi ilm bobida nafaqat o'zidan yuqori yoki tengdoshlaridan, balki o'zidan past bo'lganlardan hadis olmaguncha etuk muhaddis bo'la olmaydi"; "Men ilmni xorlab sulton amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo'lsa, bolalarini uyimga yoki masjidimga yuborsin!" Bularga Quroni Karimdagi quyidagi ko'rsatmalarni qo'shsak ilm- fan, ma'rifat, madaniyatga intilishga naqadar katta ahamiyat berilganligini bilib olamiz. Quroni Karimda marhamat qilinadi: "Olohd taolld sizzalning oralaringizda e'tiqodlilar va bilim ato qilinganlarni afzal qilqdi: "iymon keltirganlar, bilimdonlar- haqiqat Olohdan ekanligini biladilar".Bundan tashqari Xadis Shariflarda turli qavm, millatlar, dinlarga taaluqli kishilarning Olohd oldidagi tengligi, ularga nisbatan, umuman kishilar o'rtasidagi munosabatlarni adolat, insoniylik asosida qurishga oid odob- axloqqa oid ko'rsatmalar ham bor. "Qora tanli xalqlarni ham do'st tutaveringlar, zero ulardan uchitasi jannat ahlining ulug'laridan bo'lurlar: Luqmoni Xakim, Najoshiy, Muazzin Bilol, Habashiy": "Tangri nazdida eng ma'qul jihod- zolim podshohga aytilgan haq so'zdir": "Hech kim hech kimdan ortiq emas. Ortiqlik faqat dinu diyonatda va solih ishlarda bo'lishi mumkin. Behayo so'zlovchi, bahil, qo'rqqoq odam uchun boshqa yomon sifatlar ikkinchi darajalidir": "Kimki biror mo'minga ozor bersa, go'yo u menga ozor bergan bo'ladi: Menga ozor bergan Tangriga ozor bergan bo'ladi": " Zolimning zolimligini bilib turib, unga yordam brish uchun u bilan birga yurgan odam islomdan chiqib qoladi"; "O'z haqininhimota qilish yo'lida qurbon bo'lgan odamning o'limi naqadar yahshi o'limdir!;

2-bob: Inson ma'naviy o'zligini shakillanishida ilm-fan va aynan tabiatshunoslik ilmlari yutuqlarining amaliyotidagi o'rni va roli.

2.1 Ilm –fanning inson ma'naviyatini shakillanishida roli va o'rni.

O'rta va Yaqin Sharqda VIII- XIII asrlarda "xayotbahsh hurfikrli" arb- musulmon madaniyatining g'oyaviy- nazariy asosini, tabiiy- ilmiy zamirini tabiatshunoslik fanlari, tehnika taraqqiyoti sohasidagi olamshumul yutuq va kashfiyotlar tashkil etadi. Ana shu ilg'or va rivijlangan tabiatshunoslik dastavval buyuk tabiatshunoslar Jobir ibn Hayyon, eronshahriy,

Xorazmiy, Ahmad Fargʻoniy, Javhariy, Amayuriy at-Turkiy al- Fargʻoniy, Abu Komil, Abu- l- Vafo Buzjoniy, Marvaziy, Abu- l- Majar va boshqalar tomonidan rivojlahtirildi.

“.. Muhammad Xorazmiy algebra fanining asoschisidir”, - deb yozadi O.F.Fayzullaev. U fan tarixida birinchi boʻlib kvadrat tenglamalar tiplarini va har bir tipni echish metodlarining tasnifi (klasifikatsiyasini) berdi. “Algebra” soʻzining oʻzi uning tomonidan kashf etilgan mazkur tenglamalarni echish metodi “aljabr” bilan bogliqdir. Xorazmiy hisoblash jarayonlarga mantiq metodlarni qoʻlladi va rivojlantirdi, algebraic va geometric nisbatlar oʻrtasidagi aloqani aniqlab berdi, baʼzi geometric qonunlarni kashf etdi. Matematik Viner asos slogan kibernetikaning nazariy va mantiqiy asosini Xorazmiyning algoritmlar nazariyasi tashkil etadi: “algoritmi” soʻzining oʻzi esa lotincha “al- Xorazmiy” demakdir.

Ovrupada XVI asrgacha falakiyot ilmi boʻyicha asosiy darslik boʻlib Ahmad Fargʻoniyning “Ilm nujum asoslari” xizmat qilgan bu asar muallifini esa Alfraganus, deb bilishgan. Hozirda keng qoʻllanilayotgan trigonometric funksiyalar nazariyasini yaratishda Ahmad Marvaziy muayyan rol oʻynagan. Mantiq taraqqiyotida, riyoziyotning falsafiy masalalarini, musiqa ilmining matematik nazariyalarini ishlab chiqishda Abu Nasr Farobiyning xizmatlari katta... Hamid Xoʻjandiy, keyinchalik “ Fermening ulugʻ nazariyasi “ deb nom olgan nazariyaga muhim xissa qoʻshgan. Alloma Abu Hasan Mansur kub tenglamalarini echish metodlarini ishlab chiqqan. Tarix, riyoziyot, falakiyot, ilmi hiyol (mexanika), tabiyot, madanshunilik, geodeziya, saydana (farmakognoziya), fan tarixi. SHarqning ensiklopedik aql egasi boʻlmish Abu Rayxon Beruniy oʻz xissasini qoʻshgan fan sohasining toʻla boʻlmagan roʻyxati ana shundan iborat. Umuman olganda, arab –musulmon madaniyatining tabiatshunoslik, aniq fanlar sohasidagi yutuqlariga, texnika va amaliyot, moddiy ishlab chiqarish kashfiyotlariga jaxon madaniyati, sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qoʻshilgan buyuk xissasa sifatida K.Marks va F.Engelslar fan, falsafa tarixida birinchi boʻlib metodologik baho berganlar. “ Tabiat dialektikasi”ning “Muqaddima”sida F.Engels, arablarning favqulodda muhim, biroq tarqoq va behosila barbod boʻlib ketgan kashfiyotlari “ – “...oʻnlik sanoq sistemasi, algebra asoslari, raqamlarning hozirgi zamonga hos yozilishi va “al – kimyo“ga yuksak baho berib, alohida takidlab oʻtadi. F. Engels, ayniqsa “arablardan”kelgan alximiya alohida diqqat qilgan. “Anti – Dyuring“da”...alximiya oʻz davrida zarur boʻlgan edi” deb yozgan boʻlsa, “Tabiat dialektikasi” Muqaddimasi” – da alximiyaning arablarning, umuman fan taraqqiyotining eng muhim yutuqlaridan biri qatorida sanab oʻtadi. “Mulohazalar va parchalar” boʻlimida esa tabiatshunoslikning ayrim sohalari taraqqiyotini chuqur tadqiq qilish va umumlashtirish zarurligi toʻgʻrisida gapirib, fan “tarixining oʻrta asrlar bilan bogʻliq”...davrning oxirida ximiya oʻzining dastlabki alximiya shaklida paydo boʻldi” deb yozadi. SHarqdan kelayotgan behisob kashfiyotlar toʻgʻrisida gapirib F.Engels, bu yutuqlar nafaqat yunonlar adabiyotlarini, dengizchilik kashfiyotlarini import qilish va tarqatish

imkonini berdi, balki ularga misilsiz katta ko‘lam va tez sur‘atlarda rivojlanish imkonini berdi, deb yozadi: ‘buning ustiga ular (ya’ni arablar) garchi hali tartibga solib ulgurmagan ko‘rinishda bo‘lsada, qadimgilarning hech qachon hayoliga ham kelmagan behisob ilmiy dalillarni (faktlarni) magnit o‘qi, kitob bosish, kitob bosish harflarni (arablar va ispaniyaliklar, yahudiylar XII asrlardan foydalana boshlagan ...). Zig‘ir poyasidan tayyorlangan qog‘oz: X asrlardan boshlab istemolga kira boshlagan, XIII va XIV asrlardan etiboran esa nihoyatda keng tarqalib ulgurgan, paxtadan tayyorlangan qog‘oz; porox, ko‘zoynaklar, vaqt o‘lchovchi asboblari, mexanikada ham ilgari tashlangan juda katta qadam bo‘lmish mehanik soatlar olib keldilar’. Jahonshumul kashfiyotlar ro‘yhatida esa – ko‘chalarni yoritish Antiohiyada (hozirgi Turkiyaning Anodolu viloyatida) 370-yillarda; ipak qurti pillasining 550 yillardan Xitoydan Yunonistonga keltirilishi (arxeolog A.Asqarovning shohidlik berishicha meloddan bir necha ming yillar ilgari ham O‘rta Osiyo mintaqasida ipak qurti boqilganligini tasdiqlovchi arxeologik dalillar yaqinda topilgan); yozuv perolari; paxtadan tayyorlangan qog‘oz (VII asr); shamol tegirmonlari (1000 y); g‘ildirakli soatlar; magnet ninalarining ovrupeyaliklarning 1180 yillar atroflarida o‘zlashtirganligi xaqidagi va boshqa ko‘plab yutuqlarni ham F.Engels sanab o‘tadi. VIII- XIII asrlardagi arab- musulmon tabiatshunosligi, fani va texnikasi rasionalizmga sig‘inish, fan, falsafa bilan shug‘ullanish va kashfiyotlar ochishni birdan –bir maqsad deb qarash, amaliyot va tajribaviy fanlarning ko‘lamini kengaytirish va chuqurlashtirish, ulardan xayotga yaroqli amaliy natijalar, qurollar, asboblari va xosilalarni qo‘lga kiritishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. “Biz ham nimanidir bilib olishimiz, keyin esa nimanidir qila olishimiz uchun” degan shior iroqlik fan tarixchilari S.M.Salem va N.S. Abdulvahhoblar fikricha “fanning ijtimoiy vazifalarini va ilmiy bilimlarini jamiyat uchun xizmat qildirish maqsadida foydalanish zarurligini” takidlaganlar (E.A.Frolova). Ilmiy tadqiqotlarning tajribaga asoslangan bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi g‘oyani Jobir ibn Hayyon o‘zining “Etmish kitob”, “Zaharlar haqida kitob”, “Konsentratsiyalar haqida kitob”, “Solishtirmalar haqida kichik kitob” asrlarida ilgari surgan. “Tabiat fanlari va alkimyo bilan shug‘ullanuvchilarning burchlari, - deb yozgan edi Jobir, - mutassil mehnat qilish va tajribalar o‘tkazishdir. Ilm faqat shular yordamida qo‘lga kiritiladi”. Ximiyada nazariya va eksperimentni o‘zaro tutashtirib, e.I.Xolmyardning fikricha Jobir, Roziy va Ibn Sino bilan birgalikda” alximiklarning eliksir to‘g‘risidagi tasavvurlarini bartaraf etilishini boshlab bergan edi”. Jobir ibn Hayyon birinchilardan bo‘lib, suniy ravishda tirik mavjudotlarni “yaratish” mumkinligi g‘oyasini ham ilgari surgan. Fanning bunday sohasini u “suniy yaratish haqidagi fan” deb atagan. “Bunday fan, - deb yozgan edi Jobir,- umuman bo‘lishi mumkin, chunki har qanday tirik mavjudot tabiat kuchlarining o‘zaro tasiri oqibatidir. Tabiat esa, muayyan narsalarni vujudga keltirar ekan, sirini tarozular to‘g‘risidagi fan ochib berishi mumkin bo‘lgan muayyan qonunlarga bo‘ysunadi”. (E.A. Frolova). Ilm-fanga sig‘inish arab- musulmon madaniyatining

ajralmas xususiyati sifatida juda erta boshlangan. J.Sartoning habar berishicha VIII asr boshida ummaviy xalifalaridan Holid b. Yazid b. Muaviya “falsafa toshi” ni qidirib, xalifalikdan voz kechib yuborgan va o‘zining qolgan umrini fanlarni, xiniyani o‘rganishga bag‘ishlagan. O‘rta asr falakiyot ilmining asosiy tadqiqot, tajriba quroli asturlab Ibrohim al-fazariy tomonidan yulduzlar, koinotdagi jismlarning joylashishi, ular oralaridagi masofalarni o‘lchash uchun yasalgan (IX asr) . Sekstant, yani harakatlanuvchi kvadrant esa Musa ibn SHokir o‘g‘illari tomonidan yasalgan va ular 882 yilda Bag‘dodning JuG‘rifiy kengligi 10 (gradus), ekliptikaning egrilanilishi 20. 33. 52 ekanligini aniqlab berganlar. Ular bazi soda mexanizmlarni, avtomatik qurilmalarni (yuk ko‘tarish va tushirish, kanallar, to‘g‘omlar, shlyuzlarda suvni ko‘tarish va tushurish, dengiz sathining, suvning ko‘tarilishini o‘lchaydigan, boshqarib turadigan qurilmalar qurilgan. Andalusiyalik Ibn Fimas- mexanik esa (IX asr) shisha fabrikasining qurgan, metronom ixtiro qilgan va uchish apparati (asbobi) ni yasashga uringan, qanotga o‘xshash asboblarni yordamida qisqa masofaga uchib erga qo‘nishga muvaffaq bo‘lgan. 1010 yilda Javxariy xam uchishga uringan. O‘rta asr arab- musulmon ilm- fan, texnika taraqqiyoti tadqiqotchisi A.Terizogli, A.Mesning aniqlashicha qushlar qanotlari yuzasi va tanasining og‘irligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga va demak, uchishning fizikaviy qonunlarni ishlab chiqishga uringanlar.XI- XII asrlarda esa Arastu mexanikasiga tanqidiy yondoshib, tabiatshunoslik va falsafaga “Mayllar” tushunchasini kiritgan Ibn Sino qarashlarni rivojlantirgan Abu-l-Barakat al-Bag‘dodiy mexanik harakat va o‘zaro tasirning asosi “inersiya” tushunchasiga va butun olm mexanikasining yaratishga deyarli yaqin qilib qolgan edi. Abu-l-Barakat mexanikasi keyinchalik Ovrupada “impetus” nazariyasi va Nyuton mexanikasining vujudga kelishida muayyan darajada rol o‘ynadi (SH. Pines, M.M.Rojanskaya, A.B. Sagadev). Mexanikaning rivojlanishi esa dengizchilik ishlarining takomillashishiga, kemalar va qayiqlarning yuk va odam tashish hajmining oshirilishiga, uzoq masofalar – okean, dengizlar va daryolarda passajir va yuk tashish kemachiligining rivojlanishiga, dengiz xaritalari, losiyalarning benihoya takomillashuviga, kompasning ixtiro qolinishiga olib keldi.VIII- IX asrlarda Ibn Vahhob va Ismoilvayhlar, aka – uka Ahmad va Abdussamad Ibn Jafar kabi malloh (kapitan)- kemachilar, X-XI asrlarda Havashir al-Oriqiylar, Tabruvayhiy, Mu‘iriylar mashhur bo‘lgan bo‘lsalar, XII asrlarga kelib “dengiz sherlari” unvoni sohiblari, losmanlar Ibn SHazan, Sahl ibn Aban, Lays ibn Kahlanlar, “oilaviy” – butun-butun avlodlari bilan kemachilik qilib Tinch, Xind okeanlari, dengizlarda kezib yurganlar, dengizlarda hukmronlik qilganlar. VIII- XIII asrlarda okean va dengizlar arab-musulmon jamiyatini bo‘lgan. Ana shu yuksak taraqqiy etgan dengizchilar va losmanlik madaniyati keyinchalik XIV- XVI asrlarda okeanlar, dengizlar xususan O‘rta er dengizining jahon tan olgan “Dengiz sherlari” Axmad ibn Majid, Sulaymon al-Mahriy, Sayid Ali Chalabiy Ra’islar kabi arab, fors va turk mallohlari, al-Amr-l-bahr (admiral) larini etishtirib chiqardi.

Birinchi ovrupalik dengiz sayohatchilarni olib borishni o'rgatganlar, ularga Hindiston yo'lini ochib berganlar, va bi ishdan qattiq pushaymon bo'lgan (Ahmad ibn Majid) lar ham ana shular edilar. Bularning hammasi o'z navbatida falakiyot ilmining yutuqlari bilan qo'shilib, Jug'rofiya, mexanika, dengizchilik ilmlari rivojida sifatiy sakrashlarga, olamshumul ilmiy-jug'rofiy va astronomic kashfitotlarini amalgam oshirishga olib keldi. Agar X asrda Ibn Rusta "Er – shar shaklida, u o'z o'qi atrofida aylanadi" degan qarashlarni ilgari surgan bo'lsa, erotasfendan so'ng arab-musulmon olimlari Xalifa Ma'mun buyrug'I bilan al – Xorazmiy boshchiligida Sanjar tog'lari vohasida Er meridiyanining egilish burchagini aniqlaqab, Er sharining kattaligini (aylanasining uzunligini) ilmiy o'lchash, xisoblashga erishdilar. Shri-Lankada arab falakiyotchilari belgilab olgan "Janubiy Qutb" – "Arin minorasi" bilan bog'liq kartografik asarlar, shuningdek Beruniyning "Kitob al- Qonun al- Mas'udiy" qomusi Xristofor Kolumbni keyinchalik "Erning noksimon shaklda ekanligi" va shu bilan birga, "Arin minirasi" ro'parasida – G'arbiy yarim sharda Sharqiy yarim shar qarama – qarshisida undan yuksakroq markaz borligi to'g'risida xulosa chiqarishga olib keldi. Va akademik I.YU.Krachkovskiyning iborasi bilan – "... Qarangki, qanchalik taajjublanmaylik, ishonib- ishonmaylik arab jug'rofiya nazariyasi Yangi dunyo (Amerika) ning kashf etilishida muayyan rol o'ynadi". Ximiyada Jobir, Roziy, Beruniy, Ibn Sino, Xaziniy va boshqalar nazariyani eksperiment, tajribalar o'tkazish bilan qo'shib olib borib, miqdoriy tadqiqotlarga yo'l ochib "alximiklarning aliksir to'g'risidagi hurofotlarini bartaraf etishga yo'l ochishgan bo'lsalar, kimyoviy asboblari, ximiya fani va texnikasi tushunchalarining hozirgi zamon ximiya fani tushunchalariga deyarli yaqinlashtirgan edi (U.I.Karimov). Tibbiyotda turli jarrohlik asboblari – nozik kesuvchi nashtarlar (scalpel), jarrohlikdan so'ng yara, ichak va terilarni tikish ninalari (az-Zaxraviy), ularni gazak olmasligi uchun qayta ishlashda kerak dorilar juda xilma – xil qilib tayyorlanardi. Masalan Abu Bakr ar-Roziy birinchi bo'lib vaboni emlashga, juda yahshi eshilgan qo'y ichagi bilan jarohatlarni tikish va bitirib yuborishga erishgan edi (U.I.Karimov). O'sha davrlardayoq inson tashrixini (anatomiyasini) o'likni yorib o'rganish orqali tasavvur qilingan, tirik mavjudotlarda bir-butun qon aylanish najmui borligini yahshi bilganlar. Yuqorida aytib o'tilganidek bu davrda munajjimlik asboblari va mexanik, matematik qurollarni tayyorlash keng yo'lga qo'yilgan bo'lib Xarronda- qadimdan yulduzlarga sig'inib kelganlar yurtida eng aniq falakiyot va riyoziyot asboblari, qurilmalari tayyorlanar edi, eng aniq tortadigan Xarron tarozulari xalq og'zidan tushmas edi. Bu davrda shuningdek suv, shamol va chig'ir tegirmonlari Sharqiy Turkistondan Mag'ribgacha bo'lgan joylarda, qog'oz ishlab chiqarish ham shu mintaqalarda keng yo'lga qo'yilgan edi. Bu erlarda tog'- konchilik, suv omborlari, ariqlar, shlyuzlar, osma, suv va pontoon ko'priklar, shaharlarda suv quvurlari kundalik extiyoj uchun foydalanish keng yo'lga qo'yilgan edi. M.Erzining kuzatish va tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki SHarqiy Turkistonda melodning III

asridan boshlab ksilografik va harakatlanuvchi yog'ochga o'yilgan shrift (nabor) usullarida kitob bosish yo'lga qo'yilgan (bizgacha ana shu harf terish asboblari, stanoklar va shriftlar etib kelgan bo'lib, Sharqiy Turkiston to'la musulmonlashtirilmaguncha, yani XII- XIV asrlargacha kitob bosish ishlari gullab yashnagan. Bundan tashqari poroxdan turli maqsadlarda foydalanilgan, kompas esa dengizda va quruqlikdagi sayoxatlarda qo'llanila boshlangan. Ana shularni nazarda tutib, inson aqli, irodasi qudrati, ular ortida tabiat kuchlarining qudratini nazarda tutib Abu Mashar Mashalloh "Tabiat hamma narsadan qudratlidir" degan xulosaga kelgan edi. Bu xulosa ham keyinchalik ovropoliklar tomonidan o'zlashtirilib, yangi davr ilm-fani texnika taraqqiyotining asosiy shiorlaridan biri bo'lib qoldi ("Knowledge is power"- Bilim-qudratlidir"). Arab- musulmon tabiatshunosligining eng muhim va johonshumul yutuqlaridan biri Ibn al- Haysam tomonidan asos solingan va rivojlantirilgan optika (XIII asr) fanining vujudga kelishi bo'ldi. "Uning shoh asari "Optika",- deb yozadi, S.X.Nasr,- bu sohadagi O'rta asr tadqiqotlarining eng sarasidir, G'arbda Bekon, Vitelo va Keplerlarning optika bo'yicha asarlariga, hamda musulmom olimlarining keyinchalik yozilgan asarlariga ta'sir ko'rsatgan. Alxazen (Ibn al – Xaysam) shuningdek ko'z tashixi (anatomiyasi) va kasalliklarining o'rganishga juda katta xissa qo'shdi. U nurning turli oynalardagi akslanishi, yarqillashishini o'rganib shisha shar segmentining predmetni kattalashtirib ko'rsatish hossasini kashf etdi. Uning tadqiqotlari natijalari asosida keyinchalik uzoqni ko'rish trubalari va teleskoplar, ko'zoynaklarni yasash usullari ishlab chiqildi. Bu davrda nazariy jug'rofiya va tarix soxalarida Xorazmiy, Ibn Serapiondan tashqari Tabariy, Balxiy, Masudiy, al- Istahriy, Maqsidiy, Jayhoniyy, Narshohiy, Balamiy, Bayhaqiy Ibn Rusta, Ibn Xordadbeh gardiziy va boshqalar ijod qilishgan. Tabiatshunoslar olamining xudo bilan bir qatorda yoki xudo yaratganidan so'ng, o'zining barcha namoyon bo'lish shakllari, o'z ichki taraqqiyoti qonuniyatlari harakati davomida azaliy va adabiy rivojlanish va taraqqiyotida, avval va oxirsiz, cheksiz- chegarasiz ekanligini (Roziy, Beruniy) tobora tasdiqlab borardi. Koinotdagi yulduzlar, sayyoralarining harakatini chuqur o'rganish, yerning harakatda va shar shaklida ekanligu, qit'alar va dengizlarning joylashuvi, siljish va o'zgarishi Er qaridagi juda katta geologic harakatlarga bog'liq ekanligi (Ibn Sino "ash-Shifo"), Afrika ortida Er sharining muvozanatini saqlab turuvchi quruqlik (qit'a) bo'lishi kerakligi to'g'risidagi "ko'z ko'rib, quloq eshitmagan", erkin va dovyurak fikr va g'oyalar va nihoyat, Er hajmi va meridiyani bo'yicha uzunligining aniqlanishi, shu asosda Erning sferik ifodasi – globusning yaratilishi (Beruniy) o'z davri ilm-fani, falsafasi, texnikasi va amaliyoti taraqqiyoti uchun inqilobiy ahamiyatga ega edi. Bu g'oyalar nafaqat Sharqning o'zi uchun, balki G'arbiy Ovrupa va umuman hozirgi zamon ilm-fani, falsafasi, texnikasi, ijtimoiy taraqqiyot uchun, xozirgi zamonga xos ilmiy tafakkur usulining shakllanishi uchun ham fundamental ahamiyatga ega bo'ldi. O'z – o'zidan ko'rinib turibdiki, Turkiston, umuman butun O'rta asr

Oʻrta va Yaqin Sharq arab – musulmon madaniyati, tabiatshunosligining koinot, tabiat va inson toʻgʻrisidagi ilgʻor tabiiy – ilmiy va falsafiy qarashlari ilm – fan va ijtimoiy taraqqiyotining sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarib yubordi. Sharq mutaffakirlari “yunon riyoziyoti, falakiyoti va tibbiyot fanlarining tor aspslarini emirib yuborib algebra va trigonometriya, shuningdek optika fanlarining asoslarini qurdilar” deb yozgan edi J.Bernal. Tabiiy- ilmiy tasavvurlarning tobora chuqurlashib borishi, olmdagi narsa va xodisalarning oʻzaro aloqadorligini payqash, aniq fanlar sohalarida olib borilgan fundamental tadqiqotlarda (Jobir- ximiyada; Roziy- ximiya va tibbiyotda: Xorazmiy, Fargʻoniy – matematika va astronomiyada: Beruniy – falakiyot, geodeziy, madanshunilik, Ibn Sino – tibbiyot va manzil- shaxar siyosatida) mazkur aloqadorliklarning qonuniy va buzilmas ekanligining tasdiqlana borishi, olm, tabiat va insonning kelib chiqishi toʻgʻrisidagi oʻrta asr xurofotlariga zid ilmiy qarashlar sistemasini- evolusion dunyoqarash (panteistik va deistic) ni shakllanishiga olib keldi. Evolusion ananalari Jobir, eronshahriy, Joxiz, Masudiy, Roziy, “Ixvan- us- Safo”chilar va Kazviniy talimotlarida ayniqsa yaqqol ifodalangan boʻlib, hayotning jonsiz (anorganik) tabiatdan, jonli tabiatga, undan hayvonot olamiga oʻtganligi va nihoyat hayvonoy olamidan insonning ajralib chiqqanligi, hatto odamning maymun bilan urugʻdoshligi taxmin qilinardi. Bu evolusion nazariya birinchi boʻlib, Forobiy tomonidan ilgari suriladi va tabiiy- ilmiy taʼlimot sifatida asoslab berildi. “Minerallar”,- deb yozgan edi Forobiy,- dastlabki unsurlarga eng yaqin va eng oddiy aralashmalardan vujudga keladilar; ularning unsurlardan ajralishi, hali uncha katta emas. Oʻsimliklar murakkabroq va (demak) unsurlardan anach ajralgan aralashmalardan kelib chiqadi va ular muayyan darajada koʻp sonlidir. Aqlsiz hayvonlar esa oʻsimliklardan ham murakkabroq aralashmalardan kelib chiqadi. Va faqat insongina oldingi aralashmadan (yaʼni hayvonot olamidan) kelib chiqadi”. Bu evolusion nazariya Ibn Sino, Abu-l-Barakot va Qazvaniy (uning “Ajoyibul- mahsulot” asari bizgacha yetib kelgan) larning oʻsimliklar, hayvonot faunasiga bagʻishlangan fundamental asarlarida empiric tabiatshunoslik va falsafiy nuqtai- nazardan dalillandi va yanada rivojlantirildi. Odamning tabiat evolusiyasi natijasida hayvonot olamidan kelib chiqqanligi toʻgʻrisidagi, odamning insonga aylanishida bisfiziologik va ijtimoiy amaliyotning rolini juda ishonarli gipoteza shaklida (Ibn Sinoning “Xay ibn Yakzon”- yani “Uygʻoq, Tirik oʻgʻli” va Ibn Tufaylning xuddi ana shu nomdagi asari) ilgari surilishi tom maʼnoda fan, falsafa, ijtimoiy taraqqiyot uchun, dunyo va uning qonunlarini yangicha tafakkur qilish usuli, hozirgi zamon maʼnosidagi dunyoqarashning shakllanishiga, rasionalizm va insonparvarlik mayllarining kuchayishiga olib keldi. Evolusion dunyoqarashning muhim tomoni shunda ediki, undan insonning barcha ruhuy, aqliy va maʼnaviy xususiyatlari inson tanasining tabiiy- fiziologik holati, imkoniyati bilan belgilandi, degan soda, tabiiy- ilmiy dunyoqarash nuqtai- nazari kelib chiqardi. Yani tabiatshunoslik dunyoqarashi nuqtayi- nazaridan turib moddiy olamning kishi

ongiga nisbatan, borliqning tafakkurga, tabiatning ruhiga nisbatan birlamchiligi qiyinchiliklar bilan bo'lsada, bevosita etirof etilgan edi. Bu haqda mashhur aqoid al- G'azzoliy bunday deb yozadi: "Ular (yani tabiatshunoslar) insonning fikrlash qobiliyati uning mijoziga bog'liq va bu qobiliyat mijoz yo'q bo'lishi bilan yo'q bo'ladi va xalok bo'ladi deb o'ylaydilar". Shuni ta'kidlab o'tish muximki, o'sh davr madaniyati, fani, falsafasi va ijtimoiy taraqqiyoti uchun inqilobiy ahamiyatga molik bo'lgan mazkur nazariy xulosalari oddiy, empirik tadqiqotlar natijalari kuzatilgan dalil (fakt)lar bo'lib qolmasdan, falsafiy jihatdan talqin etilar, izohlanar edi va o'z davrining ilmiy dunyoqarashi sifatida ko'r- ko'rona e'tiqotga, xurofotlarga qarshi yo'naltirilar edi. Masalan, Forobiyning izdoshlari, hammaslklaridan biri Hakim Adib Ismoil Xiraviy uning tabiatshunoslik, tibbiyotga doir asarlarini bir necha bor kuydirib yuborishga, uning o'zining joniga ham bir necha bor qasd qilgan aniq fanlar sohasidagi tadqiqotlar va mantiqiy isbotlash usullariga ochiq- ochiq johillik munosabatida bo'lgan Abdulloh Ansoriyga – u qattiq kasal bo'lib qolib, uni tuzatishning hech ilojini topolmay yana Adib Ismoilga murojaat qilganlarida, u Ansoriyning peshpbidan kasalini aniqlab, dorilar va muolaja tadbirlarni yozib bergach – "Yana unga borib aytinglar: kitob kuydirish emas, ilm o'rganish kerak!" – deb, tanbeh bergan. Kishining ruhiy qobiliyati uning tanasi mijoziga, holatiga bog'liq degan fikrga asoslanib, deydi Razzoliy, tabiatshunoslar "jon o'lgandan so'ng qayta tirilmaydi degan tashaqquq (shakkokona) xulosalar chiqaradilar. Shuning bilan ular narigi dunyodagi hayotni, jannat va do'zaxni inkor etdilar. Ularni fikricha itoatkorlik mukofot bilan taqdirlanmaydi, osiylik esa jazoga sazovor bo'lmaydi".

VIII – XIII asrlardagi tabiatshunoslik madaniyatining kuchli taraqqiy etganligi, tabiatni tadqiq etishda aql va mantiq, empirizm va rasionalizm prinsiplarini keng qo'llanilishi, tabiatshunoslik bilan falsafa o'rtasidagi ittifoq tabiatshunoslik sohasidagi ilgari surilgan dalil va kashfiyotlarni, empirik xulosalarni dunyoqarash nuqtai – nazaridan qaytadan ko'rib chiqish, baholashni talab qilar edi. Bu esa tabiatshunoslarning har bir xulosasini diniy aqidachilikka, fanni ko'r – ko'rona e'tiqodga qarama – qarshi qo'yar, diniy e'tiqodni aqliy bilish, amaliyot jihatlariga ko'ra shubhaga olish, tanqid qilish, uning ta'sir doirasini cheklab borishga yo'l ochar edi. Bu xavfni juda yaxshi anglagan Razzoliy tabiatshunoslik bilan falsafa o'rtasidagi ittifoqni buzish va tabiatshunoslikdagi go'yoki olamda xudoning irodasi va qat'iy hukmi (taqdiri) xamma narsaning mavjudligi, yashashi va rivojlanishini belgilab berganligini tasdiqlaydigan tadqiqotlarini faylasuflarning zararli talqinlari va izoxlaridan ajratishni asosiy maqsad sifatida ilgari surishga majbur bo'ldi. Bu masalani hal etish, Razzoliy fikricha, tabiatshunoslikni dinga bo'ysundirib, tabiatshunoslik bilan shug'ullanadigan har bir kishi din tizginidan ushlab turishga bog'liq. Razzoliy hukmron sinf, yirik feodal va ilohiyot tazyiqida turgan diniy mafkura manfaatlarining ifodachisi edi va u muqarrar ravishda feodaliz jamiyati manaviy hayoti

qonuniyatlariga ko'ra fanni, falsafani, axloq, xuquqshunoslikni, siyosatni dinning, ilohiyotning xizmatkorlariga aylantirishga urindi. Lekin tabiatshunoslik bu qadar yuksak rivojlangan va falsafa fani bilan shu qadar chambarchas bog'liq ediki, xar bir tabiatshunosni o'z tadqiqotlaridan albatta falsafiy – dunyoqarash nuqtai – nazaridan xulosalar chiqarishga majbur qilar edi. Tabiatshunoslik Razzoliy kutgandek, olamda xudoning donoligi va qudrati, u o'rnatgan va maqsadi xudoga ma'lum ekanligini tasdiqlamas, balki unga zid kelar, tobora diniy aqidachilik, xurofotlarning asoslarini emirib borar, fan va dunyoviy madaniyatning kuchayishiga xizmat qilar edi. Turkistondagi o'rta asr musulmon ilm – fani, tabiatshunosligi, falsafiy fikrning ilmiy dunyoqarash axamiyatiga molik aqliy rasionalistik va insonparvarlik g'oyalariga, ularning Ovrupadagi o'rta asr xristian uzlatchiligini bartaraf etish, ilm – fan, rasionalizm va insonparvarlik mayllarini qaytadan jonlantirishdagi rolga, jahon madaniyati, fan va falsafasi taraqqiyoti nuqtai nazaridan bag'oyat xaqqoniy va to'g'ri, ilmiy holis bahoni birinchi bo'lib F.Engels bergan edi. Turkiston xalqlarining o'ta asr arab – musulmon madaniyati, sivilizatsiyasi ilm – fani, tabiatshunosligi, falsafasi doirasida "hayotbaxsh xurfikrlik" shakllandi, u nafaqat arab – musulmon sivilizatsiyasi rivoji uchun, balki o'rta asr va Yangi davr G'arbiy Ovrupa xalqlari, umuman xozirgi zamon madaniyati, fani, falsafasi, tafakkur usuli taraqqiyoti uchun olamshumul axamiyatga ega bo'ldi. Yangi davrda, deb yozgan edi F.Engels "G'arbiy Ovrupada dinning" ma'naviy mustabidligi sindirildi", "...roman xalqlari arablardan o'tgan va o'zidan yangidan kashf etilgan yunon falsafasini endirgan, XVIII asr matearilizmini tayyorlagan hayotbaxsh xurfikrlik tobora ko'proq tomir ota boshladi. VIII – XIII asrlarda O'rta va Yaqin Sharq arab – musulmon falsafasi o'z taraqqiyotining gullab – yashnagan davrini kechirdi. Unda biz yuqorida qisman yoritganimiz qadariylar, murjalar, mutazila va Kalomdan iborat ratsioanalistik va insonparvarlik yo'nalishidagi diniy – falsafiy oqimlar; "sof arab- musulmon" falsafasi – mashshiyunlar (Kindiiy, Forobiy, Yahyo ibn Adi, Ibn Sino, Umar Hayyom, Nasriddin Tusiy, Ibn Bajja, Ibn Tufayl, Ibn Rushd); Demokritning empirik tabiatshunoslik materializmi yo'nalishidagi tabiiyunlar (Jobir, eronshahriy, Roziy, Beruniy, Abu- l- Barakot); amaliy siyosat, davlat va ahloq falsafasi (Abu Xanifa, Abu Yusuf al- Xirojiy, Mavardiy, Forobiy, Ibn Miskavayh, Ibn Sino, Kaykovus, Nizom- ul- Mulk, Nasriddin Tusiy, Sadiy, Xofiz); Mantiqshunos va xozirgi semanik mantiq falsafasi yo'nalishidagi falsafa (Matta ibn Yunus, Yuxanna Xaylon, Farobiy, Abu Sulaymon Mantiqiy as- Sijjistoniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, huruffylar, Mir Said Sharif Jurjoniy); fan, falsafiy va diniy ta'limotlarni qiyosiy o'rganuvchilar (Ibn an- Nadim, Abu Abdulloh Kotib Xorazmiy, Abdulkarim ash- Shaharostoniy, Bayhaqiy, Ibn Xalliqon, Ibn abi Usaybiya, al- Forisiy, al- Faxriy) kabi oqimlar mavjud bo'lganlar. Yuqorida sanab o'tilgan falsafiy oqimlar va ularning eng muhim falsafiy muammolarini bu erda sanab o'tishning, to'la bayon qilib berishning hech imkoni yo'q. Biz bu erda asosan mashshoiyun, tabiiyun va amaliy

siyosat, davlat axloq falsafiy oqimlarning eng umumiy, mixum jihatlarini tavsiflash bilan kifoyalanamiz. Ayni shu “klassik” davrda falsafa, faylasuflarning hokimlar oldida, umuman jamoatchilik, xalq nazarida katta obro‘ va mavqeyi qozonganlar, nufuzga ega bo‘lganlar. Masalan Abu- l- Fazl Bayhaqiy o‘zining “Tarixiy Mas’udiy” asarlarida keltirganidek Xorazmshoh Ma’mun “Ilm- hamma mulklarning a’losi, hamma narsa unga intiladi, uning o‘zi esa kelmaydi”, deb, u chaqirganda, hadeganda chiqavrmagan beruniyga “Agar bu o‘tkinchi dunyoning o‘z qonunlari bo‘lmaganda edi, mening seni chaqirishim lozim ko‘rilmas edi, men emas, ilm a’loroqdir” deb uzrhohlik qilishiga majbur bo‘lgan. Farobiyning Sayf – ud- davla, Ibn Sinoning A’lo- ud- davla qoshidagi nufuzlari bundan ham yuqori bo‘lgan.

Bundan tashqari, falsafaning ilmiy- tushunchalar, kategorial apparati yuksak takomilga erishgan, falsafiy fanlar yuqori nazariy- metodologik darajada tasnif (klassifikasiya) qilingan- bu o‘rinda Forobiyning “Aksom ulum al- akliyya” Abu Abdulloh Kotib Xorazmiyning “Mafotih- ul- ulum”, Faxriddin Roziyning “Jom’e- ul- ulum” kabi asarlarini eslash kifoyadir. Falsafa aholining ancha- buncha ziyoli, ma’rifatli qatlamlari, kosib- hunarmand, savdogarlar, sayyohlar, siyosatchilar o‘rtasida keng tarqalib ulgurgan edi. Ayni paytda falsafadagi o‘ta so‘l qarashlar, g‘oya va ta’limotlar majoziy (simvolik) til, tushunchalar va iboralarda, badiiy obrazlarda ham ifodalangan (Forobiyning “Kitob- ul- hurf”, Ibn Sinoning “Uyg‘oq, Tirik o‘g‘li”, “Salamon va Ibsol”, “Qush risolasi” falsafiy qissalarini, Nasriddin Tusiyning “Razzat- ut- taslim, yo tasavvurot” kabi asarlarni eslaymiz). Davrning o‘ta qizg‘in, suronligiga qaramasdan, arab- musulmon faylasuflari ilm- fan, falsafaning eng fundamental- borliq, substansiya, materiya va uning atributlari, harakat qonuniyatlari va fizikaviy mexanizm, jon, rux, ong, tafakkur, fozil jamiyat, Komil insonni shakllantirish kabi abadiy va doimo dolzarb muammolar, mavzular ustida ishlaganlar. F.Engels bir necha qayta takidlab o‘tganidek “juda muhim” ilmiy- falsafiy yutuqlarga erishganlar. Deistik va panteistik dunyoqarashga asoslangan Roziy, Forobiy, Beruniy va Ibn Sino ksbi mutaffakirlar diniy aqidachilikka, ilohiyotchilarning spekulativ falsafasi- Kalomga sog‘lom aql, ilm- fan, mantiqiy nuqtayi- nazaridan turib tanqidiy yondashar edilar. Ular mutlaq xaqiqat faqat Quron va Sunnada deyuvchi mutakallimlardan farqli o‘laroq aqidalar, bilimlarni majoziy aqliy talqin, sharh qilib, haqiqatning ilmiy xolisona xarakteri, sabab – oqibat zanjiriga asoslanuvchi mantiqiy tafakkur yordamida ham qo‘lga kiritilishi mumkinligini ko‘rsatib, inson o‘z aqli, ilm- fan, falsafa yordamida haqiqatni tadqiq qilishga va qidirib topishga haqli ekanligini isbotlashar edilar.

Ilmiy holisona (obektiv) haqiqatni – real dunyoni inikos ettiruvchi insoniy haqiqatning mavjudligini isbotlashga urinish jarayonida Roziy, Forobiy, Beruniy va Ibn Sino kabi mutaffakirlar K.Marks iborasi bilan aytilganda o‘rta asrlar jaholati, xurofotlari, diniy

mafkura mutlaq hukmron bo'lgan sharoitda- daxriylik bir butun ta'limot sifatida jamiyat ma'naviy

Hayotidan taomila siqib chiqarilgan bir sharoitda, hukmron diniy aqidachilikning "ilohiyotning o'zini materializmni targ'ib qilishga majbur qildilar" (K.Marks) Diniy aqidachilikning o'zini ilm- fan, falsafani targ'ib qilishga majbur qilishning o'zi bo'lmas edi albatta. Buning uchun diniy- aqidaviy mafkuraning o'zining aqliy va majoziy talqin qilish , ularni aql, ilm-fan, falsafa dalillari bilan to'qnashmaydigan holga keltirish, ularning taraqqiyotiga havf solmaydigan qilib talqin qilish, yani rasmiy humron diniy aqidalardan chetga chiquvchi ilg'or g'oyalar va qarashlarga ega bo'lgan bir butun dunyoviy falsafa madaniyatini vujudga keltirishni talab qilar edi. Roziy, Forobiy, Beruniy va Ibn Sino kabi mutaffakirlar olam inson va xudoning o'zaro munosabatlarini kreasionalistik va taqdirchilik nuqtayi- nazaridan izohlash o'rniga, panteistik va deistic ta'limotlarni, qarashlarni ilgari surgan edilar. Roziy va Beruniy nazdida xudo bor, u qachonlardir olamning yaratilishida turtki, vositachi bo'lgan, keyinchalik esa uni o'z xoliga qo'yib,olam o'z qonunlariga binoan yashay boshlagan, rivojlangan va abadiydir. Roziy fikricha xudoni dunyoning asosida yotuvchi, besh asosning (hayula- materiya, makon, zamon, va jon) biri, ularning o'zaro tutashtiruvchi, ularga harakat, hayot bag'ishlovchidir. Beruniy o'zining "Geodeziya" nomli mashhur asarida xudoni, deizmning panteizmga juda yaqin shaklida olam qonuniyatlarining amal qilishiga, insonnin yahshi yashashga ko'maklashuvchi sifatida tushuntirgan. Umuman Jobir, eronshahriy, Roziy, Beruniy yoki Abu-l- Barakat kabi mutaffakirlar xudoning irodasi va yaratuvchilik faoliyatini oqilona maqsad, adolat va ezgulikni amalgam oshiruvchi yo'nalishida talqin etganlar. Farobiy, Ibn Miskavayx, Ibn Sino kabi mutaffakirlar xudo, olam va insonning o'zaro munosabatlarining Arastu falsafasining sabab- oqibat prinsiplari, neoplatonizmning emanasiya (sudur,fayzli ilohiy) nazariyasidan foydalangan holda yushuntirib, xudo va olam, tabiat, inson o'zaro qarama- qarshi, mutlaqo begona borliq emas, balki bir vujudiyat (borliq) ning bir- biriga bog'liq, o'zaro bir – birini taqozo etuvchi ikki tomonlaridir, xudo- vojib- ul vujud- borliqning sababi, mohiyati, olam, tabiat, inson esa mumkin-ul- vujud, yani oqibat, bo'lish ehtimol bo'lgan borliqdir deb tushuntirganlar. Olam, tabiat, inson va xudo o'rtasida mohiyatliy, zaruriy bog'liqlik mavjud, ular yaxlit, bir butun borliqni tashkil etadilar. Demak xudo azaliy va adadiy ekan moddiy olam, tabiat ham o'zining barcha ko'rinishlarining mohiyatida azaliy va adabiydir. Forobiy, Ibn Sino kabi mutaffakirlar fikricha ilohiy mohiyatga ega bo'lgan inson yashaydigan shu dunyogina haqiqiy (real) dir. Shuning uchun inson shu dunyoda insonlik va aql talablariga rioya qilgan holda yashashi, haqiqiy moddiy va ma'naviy baht saodatga erishishi kerak. Ana shunda undan kelajak avlodlarga yahshi xotira, ma'naviy mulk qoladi va kelgusi avlodlar xotirasida yahshi odam, fozil- etuk kishi, Komil Inson sifatida abdiy yashaydi. Agarda kishi o'zining jismoniy va

ma'naviy qobiliyatlarini, tabiatini mehnat, ta'lim- yarbiya, kasb-hunar, san'atlarni egallash orqali takomillashtirmasa, undan kelgisi avlodlarga yomon, johil kishi degan xotira qoladi va u kishilar xotirasidan o'chib, yo'q bo'lib ketadi, bu juda katta baxtsizlikdir. Forobiy va Ibn Sino fikricha diniy aqidalar xuddi ana shu haqiqiy baxtga erishish yoki baxtsizlikni majoziy ifodalab, go'yoki inson narigi dunyoda bo'ladi, qiyomat kuni yiriltiriladi, daxshatli so'roqqa tutiladi, o'z qilmishlariga yarasha jazo yoki savob oladi deb ifodalaydilar xolos. Aslida bu, ularning fikricha johil, bilimsiz mutassib kishilarga olam, inson hayotining ma'nosi to'g'risidagi ilmiy va hayotiy haqiqatlarni ularning tasavvurlariga moslab diniy afsona, rivoyat, xikoya, ertak, masallar va x.k shakllarda etkazishdir. Payg'ambarlar ana shunday hikmat va siyosat egasi bo'lganlar, insoniyatni ana shu yo'l bilan insoniylik va haqiqat yo'liga olib chiqishga uringanlar, degan "payg'ambarlik falsafasini" Forobiy va Ibn Sinolar ilgari surganlar. "Payg'ambarlik falsafasi" nuqtayi- nazaridan turib, Ibn Tufaylning habar berishiga qaraganda, Forobiy bidat, xurofotga botgan kishilarning narigi dunyo, undagi do'zah azoblari to'g'risidagi tasavvurlarini aqli almoiy- jalmoyi bo'lib qolgan kampirlar va aqli ojizlarning bosinqirash, alahsilashlaridir, deb tushuntirgan. Buni ilhiyat, diniy mafkura manfaatlariga zid deb to'g'ri tushunishni istamagan imom Razzoliy esa "shu paytgacha biron- bir musulmon bunday kofirlikka jur'at etmagan edi" deb haqsiz Forobiy va Ibn Sino kufrga ketishda ayblagan. Roziy, Forobiy, Beruniy va Ibn Sino o'z ijodlarida ilohiy ilhom nuri yordamida g'oyibni bilishni, soxta avliyolik va mo'jizakorliklarni o'z davri uchun juda ham ilmiy asosli shubha ostiga ola bilganlar. "Bilim"- ning bunday soxta yo'llariga inson o'z umrini bag'islamasligi, aqliy, hissiy bilish va amaliy tajribaga asoslangan ilmiy haqiqatgina uni samarali va baxtli xayot kechirishga imkon berishini takidlaganlar. Biroq diniy mutassibchilik u vaqtda kuchli bo'lganligi uchun ular "haqiqatning ikki yoqlamaligi" to'g'risidagi ta'limotni ilgari surganlar. Ular fikricha haqiqat garchi bitta bo'lsada, unga erishish yo'l ikki tomonlamadir. Biri ilmiy bilish, aql va mantiq dalillari yo'li – bu ta'lim va tahsil olgan, aqlli, ilmli kishilar uchun, ikkinchisi esa – majoziy ifodalar, rivoyat, hikoya va masalalar yo'li. Keyingi yo'l diniy kitoblarda bayon etilgan, ko'r – ko'rona e'tiqodga o'rgatilganlar yo'li, ilmiy haqiqatlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qila oladigan, tasavvur qila oladiganlar yo'lidir. Bu ikki haqiqat nazariyasi diniy va dunyoviy bilimlarni, ilm- fan falsafa bilan ilohiyot chegaralarini ajratib bish, ularning o'zaro to'qnashmasdan, mustaqil rivojlanishlarini ta'minlash uchun, fan va falsafaning jamiyatdagi rolini ko'tarishda juda muhim ro'l o'ynadi.

VIII- XIII asr Sharq mutaffakirlarining ijtimoiy- siyosiy qarashlari jamiyat, davlat va insonning shaxsiy hayotida hukmron sinflar, avliyolar, payg'ambarlar o'ynaydigan ro'lni aqliy, insonparvarlik nuqtayi- nazaridan hal qilishga imkon berardi. Xudo olamidagi taqdiri azalni mohiyatdan bilganligi, uni o'zi o'rnatganligiga qaramay, olam va undagi ishlar, shu jumladan inson irodasi va faoliyati o'tkinchi, o'zgaruvchi bo'lganligi uchun ularni bilish, ularga

aralashishdan yuqori turadi. Buning ustiga dunyoning ishlariga hech bir shaklda aralashib, ularni o'zboshimchalik bilan o'zgartirib, buzib- tuzib turish xudoning donoligi va adolatligiga zid ekan, olamda, tabiat va inson hayotida tabiat qonunlari, inson hayotida esa uning aqli, erkin irodasi xukmronlik qiladi. Bu esa payg'ambarlar- faylasuflarini insoniyat jamiyatini Fozil jamiyatga (madina), insonning o'zini esa Komil Insonga aylantirish, tarbiyalash, ularga ma'naviy rahbarlik qilishlarini taqozo etadi. Forobiy, Roziy, Beruniy, Ibn Sino kabi mutaffakirlar payg'ambarlar va faylasuflar insoniyat jamiyatini Fozil jamiyatga, insonni esa Komil Insonga aylantirilishlari zarurligi, bu ularning ilohiy va insoniy burchlari, missiyasi ekanligi g'oyasidan kelib chiqib "uch aldoqchi to'g'risidagi" ta'limotni- soxta payg'ambarlar, avliyolar, ruxoniylarning o'z maqsadlari, boyish va davlatga ega bo'lishga intilishlari yo'lida xalqlar, millatlarni aldaganliklari ta'limotni ilgari surganlar. Bu ta'limot ham Sharq va G'arb madaniyati, sivilizasiyasi taraqqiyotida ancha-buncha ijobiy rol o'ynadi.

Uyg'onish davri, Renessans- G'arbiy va Markaziy Evropadagi mamlakatlarning madaniyat tarixida o'rta asr madaniyatidan yangi davr madaniyatiga o'tish davri. Tahminan XIV- XVI asrlarni o'z ichiga oladi. Uyg'onish termini XVI asr Italyan gumanislari, xususan rassom va tarixchi J. Vazzariy (1511-74) asarlarida uchraydi, fanda XVIII asrdan boshlab ishlatiladi. Uyg'onish davri Evropada o'z iqtisodiy asoslari jihatidan feodal ishlab chiqarish usuli asta sekin inqirozga uchrab, burjua ishlab chiqarish usuli kurtaklari vujudga kela borishi bilan xarakterlanadi. Jamiyat hayotida shaxar rolini kuchayishi, yani shaxarning ishlab chiqarishida brogan sari ahamiyati oshib borishi, shaxar ichida va shaxarlar aro Tovar almashtirilishini kuchayishi, savdo aloqalarini avj olishi, hunarmandchilikni taraqqiy etishi va shu asosda yangi-burjua ishlab chiqarish munosabatlarining shakllanishi Uyg'onish davri iqtisodiy hayotiga xos xususiyatlardir. Bu davr siyosiy jihatdan cherkov, Papa tasirida bo'lganmayda knyazliklar o'rniga Ispaniya, Fransiya, Angliya va boshqa joylarda yirik, mustaqil knyazliklarning vujudga kelishi, ularning papa, cherkov diniy- ma'naviy xokimiyati ta'siridan qutilish, dunyoviy xokimiyatni kuchaytirish uchun kurashishi avj olishi bilan xarakterlanadi. Davrning iqtisodiy-siyosiy xayoti inson shahsiyatini birinchi o'ringa qo'ydi. Insonga feodal- tabaqachilik munosabatlari, cherkov asketik ahloqi o'rta asr tradisiyalari doirasi torlik qila boshladi. U endi o'ziga atrof tabiatga boshqacha ko'z bilan qaraydigan bo'ldi, uning voqeilikka, o'tmishga bahosi, estetik qarashi o'zgara bordi. YAngi davr dunyoqarashning namoyondalari- turli kasbdagi va turli ijtimoiy mavqedagi kishilar- shoirlar, filologlar, filosoflar, rassomlar o'zlarining tadqiqot ob'ektlari deb insonni hisobladilar. Insonni tabiatning ajralmas bir qismi va uning mukammal mahsuli sifatida tushundilar. Inson, uning kechinmasi, ichki dunyosi, hayotiy adabiyot va san'atning asosiy mavzusi bo'lib qoldi. Shaxs ijodining garmonik, erkin, har tomonlama taraqqiyoti ideali shakllana boshladi. Shuning uchun ham bu davr mutaffakirlari

insonshunoslar- gumanistlar deb ataladi. Gumanistlar yangi dunyoni qaror toptirishda antic merosga murojaat qildilar. Ular qadimgi qo'l yozmalar va antic san'atyodgorliklarini to'plab va o'rganib, antic merosning tiklanishi va tarqalishi hususida ko'p ish qildilar. Bunda gumanistlar, shubhasiz, Sharqning, jumladan Markaziy Osiyoning qadimgi davrdagi madaniyatidan keng foydalandilar. Uyg'onish davrni g'oyaviy jihatdan tayyorlashda arab tilida vujudga kelgan O'rta va Yaqin Sharq ilg'or falsafasi ta'limotlari, Roziy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd asarlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu mutafakirlar asarlari XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilinib, keng foydalanildi. Ular orqali yunon faylasuflari asarlari Evropaga kirib keldi. Averoizm Evropada ham hurfikrlilikni, ikki haqiqat ta'limotining tarqalishida hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, Uyg'onish davri madaniyati shunchaki antic madaniyatiga qaytish emas edi. Antik madaniyatni tiklash yangi madaniyat taraqqiyotida asosiy vosita, manba bo'lib xizmat qildi. Antik madaniyat yangi tarixiy sharoitdan kelib chiqib, yangicha rivojlantirildi. Uyg'onish davrida ilmiy tadqiqotda erkinlik huquqi e'lon qilindi. Dunyoviy fan, dunyoviy adabiyot va san'at vujudga keldi. Evropa mamlakatlarida kitob bosishning yuzaga kelishi (XV asr) hamda tarqalishi antic merosning, yangi, gumanistik qarashlarning yoyilishida katta rol o'ynadi. Uyg'onish davri gumanistlari dunyoqarashi mohiyat e'tibori bilan burjuaziya dunyoqarashi edi. Lekin bu davr madaniyatida burjua dunyoqarashi doirasiga ham sig'maydigan oqimlar ham vujudga keldiki, ularning ahamiyati g'oyat ulkandir. Bir tomondan, huddi shu vaqtda utopik sosializm (T.Mor T.Kampanella) vujudga kelgan, adabiyot va tasviriy san'atda haqiqiy demokratik hodisalar rivojlantirilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yangi renessans formalari feodal aristokratiyasi va katolik cherkovi tomonidan qabul qilinib, ularning manfaatlariga moslashtirila boshlandi. Uyg'onish davri madaniyatining xronologik chegarasi, uning yoyilish doirasi, milliy xususiyati haqidagi masala ancha murakkab masalalardandir. Rennessans madaniyatining tarqalish darajasi turli mamlakatlarda turlichadir. Uning paydo bo'lishi va yorqin ifodasi Italiya bilan bog'liq. Italiya XIII- XIV asrlardayoq Evropada iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan mamlakat edi. Italiya madaniyati rivojlanishiga uning antic madaniyatining yirik markazi bo'lganligi, bu erda qadimgi yodgorliklar boshqa mamlakatlarga qaraganda ko'p saqlaganligi ham ta'sir ko'rsatgan.

San'atshunoslar Italiya Uyg'onish davri arafasi – XIII-XIV asrlarni (K. Protorenessans) hisobga olmay, Italiya Uyg'onish davrini quyidagicha davrlashtiradilar: Ilk uyg'onish (tasviriy san'at va arxitekturada – 15 - asr, adabiyotda xatto – 14 – asr). Yuksak uyg'onish (15 – asr oxiri – 16 – asrning birinchi choragi), So'nngi uyg'onish (16 – asr). Xozirgi tadqiqotchilar bunday davrlashtirishni ba'zi xollarda boshqa mamlakatlarga nisbatan ham qo'llaydilar, lekin bunday uyg'onish madaniyati ayrim bosqichlarining xronologik chegarasi Italiyanikidan farq qiladi. Uyg'onish madaniyatining Fransiya, Niderlandiya, Germaniya, Angilya, Ispaniya va boshqa

Evropa mamlakatlarida tarqalishi, avvalambor, shu mamlakatlardagi milliy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lsa, ayni vaqtda Italiya gumanistik madaniyati yutuqlari xam ta'sir ko'rsatadi. Italiya Evropa gumanizmining chinakam <<maktabi>> bo'lib qoldi. Evropadagi boshqa mamlakatlarning ilg'or intelegensiyasi unga intilishlar va undan o'rnak olishga xarakat qilishardi. Evropaning ko'p mamlakatlarida uyg'onosh davri ziddiyatli bo'lib, antik ta'sir Italiyaga nisbatan sust, milliy tradisiya va feodal madaniyati esa aksincha kuchli edi. So'nggi uyg'onish davrida ko'pgina renessans ideallari va normalari Italiyaning o'zida ham, undan tashqarida ham o'zgarishga uchradi. Keskin sinfiy kurash, ayrim mamlakatlardagi feodal – katolik reaksiyasining, boshqasida protestantizmning g'alabasi sharoitida renessans gumanizmida krizis boshlandi. Gumanistlarning inson erkin rivojlanishi uchun imkon beradigan yangi jamiyat haqidagi optimistik va hayoliy ishonchlari puchga chiqdi. Uyg'onish davri madaniyatida arisyokratik tendensiya kuchaydi. Bu manerizm va shunga o'xshash bosqqa oqimlarning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatdi. So'ngi uyg'onish gumanizmi yirik vakillari – V.Shekspir, M. Servantes, Mikelanjilo ijodida hayot o'z ziddiyatlari ("tragic gumanizm") bilan aks ettirildi, yomonlikka qarshi kurashda fojiaiy motivlar paydo bo'la boshladi. Yangi sharoitda uyg'onish madaniyati o'ringa yangi oqimlar vujudga keldi

Fan va madaniyat. Tabiatshunoslikda, ayniqsa astronomiya, geografiya, anatomiya sohalarida yirik muvaffaqiyatlarga erishildi. Buyuk geografik kashfiyotlar (X.Kolumb, Vasko de Gama, F.Magellan va boshqa sayohati) amalda Erning sharsimonligini isbotladi, quruqlikning katta qismini tasvirlashga imkon beradi. XVI asr o'rtalarida polyak astronomi N. Kopernik geliosentrik sistemani kashf qilishi fanda A.Vezaliy ilmiy anatomiyaga asos soldi; ispan olimi M. Servet organizmda qonning doiraviy aylanishini ochishga yaqinlashdi. Mexanika, xususan algebrada bir qancha kashfiyotlar qilindi. Buyuk geografik kashfiyotlar faqat geografiya sohasida emas, geologiya, botanika, zoologiya, etnografiya bo'yicha ham yangi ma'lumotlar berdi.

Filosofiyasi. Uyg'onish davrida fan va madaniyatning ayrim sohaları hali to'la bir-biridan ajralmagan va differensiyalanmagan edi. Ko'p filosofik g'oyalar professional filosoflar tomonidan emas, balki rassomlar, shoirlar, olimlar tomonidan olg'a surilgan edi. O'rta asr dunyoqarashidan ajralib chiqish eng avval etika sohasida namoyon bo'ldi. Etikadagi uyg'onish ayrim hollarda so'nggi stoizm g'oyalarigaqaytish shaklida, ko'pincha epikureizmni tiklashda ko'rindi. Gumanistlarning yunon tili va yunon filosoflari (Platon, Aristotel va boshqa) asarlari bilan tanishishlari Uyg'onish davri antisholastik filosofiyasi taraqqiyotida yangi bosqich ochdi. Uyg'onish davrida filologiyaga jiddiy e'tibor berildi. Gumanistlarning deyarli hammasi ko'zga ko'ringan filologlar edilar, ular lotin tilini bilish va bu tilda yozishni davrning eng muhim talabi deb qaraganlar.

Uygʻonish davrida adabiyot davri gʻoyalari ayniqsa gumanizm dunyoqarashi bilan chambarchas bogʻliq edi. Eng muhim badiiy yodgorliklar (F.Rablenning <<Gargantua va Pantagryul>>, M. Servantesning <<Don Kixot>> romanlari, V. Shekspirning dramalari va boshqa)da xalq ijodi va antik adabiyot anʼanalari rivojlantirildi. J. Bokkaichoning <<Dekameron>> toʻplamidagi novellalar syujeti xalq latifalari, rivoyatlaridan olinib, antik proza ruxida yozildi. Gomer, Vergiliy asarlariga taqlidiy asarlar koʻp yaratildi. Ilk Uygʻonish davri adabiyotida, asosan komik novellalar. Yuksak Uygʻonish davrida qaxramonlik poemalari, Soʻnggi Uygʻonish davri adabiyotida esa postoral poeziya, roman, dramalar ijod qilindi (shaxar hayotiga zid ravishda choʻponlarning hotirjam, osoyishta, erkin hayoti kuylandi). Tili va mohiyati jihatdan ilk milliy adabiyotlar maydonga keldi, milliy adabiy tillar shakllanib, nazariy asoslandi. 13 – asr oxiri va 14 – asrning boshida Italiyada A. Dante, F. Petrarka ijodi adabiy til rivojiga katta xissa qoʻshdi. Germaniya va Niderlandiyada erasm Rotterdamskiy, I. Reyxlin, Fransiyada M. Monten va boshqa ijodida erksevarlik, insonparvarlik gʻoyalari publisistik ruxda ifodalanadi, yuksak insoniy tuygʻular tarannum qilindi. Slavyan xalqlari (hususan Yugoslaviya, Polsha) adabiyotlarida italyan adabiyotining taʼsiri kuchli boʻldi. Angliyada gumanistik adabiyot 16 – asr oxiridan rivoj topa boshladi, ayniqsa teatr katta shuxrat qozondi. Burjuacha taraqqiyot yoʻliga kirmagan, lekin geografik kashfiyotlar tufayli qisqa muddatli milliy yuksalish roʻy bergan. Portugaliya va Ispaniyada sarguzasht roman yaratildi. M. Servantesning <<Don Kixot>> romani faqat ispan adabiyotininggina emas, Umum Evropa Uygʻonish davri adabiyotining yakuni sifatida maydonga keldi. Loped Vega ijodidan keyin barokko adabiyoti tarqala boshladi. Uygʻonish davri Evropa mamlakatlarining madaniy va gʻoyaviy hayotida katta pregressiv roʻl oʻynadi. Bu davrda jaxon madaniyatining eng nodir va bebaho asarlari yaratildi. Uygʻonish davrining koʻp gʻoyalarini 18 – asr maʼrifatparvarlik vakillari meros qilib oldilar. Sharq Uygʻonish davri. Olimlar orasida Uygʻonish davriga territorial nuqtai nazardan keng miqyosda qarash, yaʼni uni jaxon tarixiy hodisasi siftida baholash hollari ham bor. Xususan bir guruh tadqiqotchilar muayyan davrda Sharqda ham Uygʻonish davri boʻlganligi haqida munozara yuritmoqdalar. Akad. N. I. Konrad 8 – 12 – asrlarda Xitoyda Evropa Uygʻonish davriga oʻxshash davr boʻlganligini qayd etdi. Armaniston va Gruziyaning ayrim olimlari (Sh. Nusubidze, V. K. Chaloyan) Uygʻonish davri Sharqning bir qancha mamlakatlariga ham xos, Zakavkazda 12 – 13 – asrlarda shunday davr boʻlgan deb chiqdi. Oʻzbekistonda ham baʼzi olimlar (M. M. Xayrullaev, A. Xayitmetov va boshqa) Sharqda, xususan Oʻrta Osiyoda

2.2 Tabiatshunoslik fanlari imkoniyat va yutuqlarining inson hayoti va ayniqsa ma'naviy qiyofasini shakillanishida omil sifatidagi ahamiyati.

Yevropadagi davrdan oldin – 9 – 12 – (1 – davr), 14 – 15 – (2 – davr) asrlarda Uyg'onish davri bo'lganligini asoslab berdilar. Ular SHarq va Yevropa Uyg'onish davri o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik umumiy qonuniyat, o'ziga xoslik va tafovutni ko'rsatib o'tdilar. Sharq Uyg'onish davri bilan Evropa Uyg'onish davri o'rtasidagi asosiy tafovut ularning ijtimoiy – iqtisodiy tuzumi va taqdiridadir. Evropa Uyg'onish davri ikki tuzim chegarasida - feodalizm inqirozga uchrab burjuaziya tarkib topayotgan davrda paydo bo'lgan va undan burjuaziya madaniyati o'sib chiqqan, dunyoviy madaniyatning g'alabasiga olib kelgan bo'lsa, Sharq Uyg'onish davri feodal tuzum feodal ishlab chiqarishining bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tish bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida arablar istilosidan so'ng, xalifalik davrida ijtimoiy – iqtisodiy hayotda keskin o'zgarish bo'ldi. Savdodan manfaatdor bo'lgan xalifalik o'z teritoriyasida emas, boshqa chet va uzoq mamlakatlar bilan ham savdoni rivojlantirdi, quruqlik va dengizda aloqalar kengaydi, jamiyat hayotida shaxarlarning roli kuchaya bordi. Iqtisodiy hayotdagi shunday o'zgarishlar tufayli fan va madaniyatda ham keskin o'zgarishlar yuz berdi. Markaziy Osiyoda markazlashgan feodal davlatning tuzulishi bu erda madaniyatning rivojlanishida aloxida ahamiyatga ega bo'ldi. 9 – 12 – asrlarda O'rta Osiyo xalqlari dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, etakchi saflarida turish darajasiga ko'tarila oldi. Bu davr fani va madaniyatida xuddi Evropa Uyg'onish davriga xos asosiy xususiyatlar, ya'ni antik davrga murojat qilish, uni <<tiriltirish>>, fanda universallik, gumanizmni tarannum etish namoyon bo'ldi. Muhammad Xorazmiy, Farg'oniy, Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy kabi mutafakkirlar o'z vatanlaridagi qadimiy ilmiy tradisiyalar bilan bir qatorda qadimgi yunon va umuman qadimgi Sharq ilmiy tradisiyalar bilan bir qatorda qadimgi yunon va umuman qadimgi Sharq ilmiy tradisiyalarini <<tiriltirish>>, ular asosida fanni insoniyatning davrning talablari asosida yangidan rivojlantirish talablarini qo'ydilar. Adabiyotda esa Rudakiy, Firdavsiy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi siymolar O'rta Osiyoning o'zidagi qadimgi lirik va epik adabiyot tradisiyalarini <<tiriltirish>>ga xarakat qildilar. Rassomlik san'atida Bexzod ham

shunday yo‘l tutib o‘z maktabini yaratdi. Sharq Uyg‘onish davri Evropa Uyg‘onish davridan farqli ravishda tarixda ilgarilab bormadi. Bu erda ijtimoiy rivojlanish qator zarbalarga, krizislarga uchradi, ichki feodal ziddiyatlar, katta bosqinchiliklar, salib yurishlar, nixoyat g‘arb burjua davlatlarining mustamlakachilik siyosati tufayli inqirozga yo‘l tutdi. Lekin ularning eng yaxshi yutuqlari Evropadagi Renessans davri ideologiyasini tayyorlash, unga aktiv ta’sir etish orqali umuminsoniy madaniyatning, tabiiy – ilmiy fikrlar, ilg‘or g‘oyalarning rivojiga, tantanasiga katta xizmat qiladi. Eramizdan oldingi IV – II asrlardagi oromiy va mixxat yozuvlari, Turkiston hududidan topilgan. VI – VII asrlarga tegishli O‘rxun – enasoy yozuvidagi bitiklar bu erlik xalqlarning qadimdan savodxon bo‘lganidan dalolat berdi. Arablar istilosining asoratlariga qaramasdan Turkistonda ilmu fan shulasi so‘nmadi.

Bu o‘lkada, ayniqsa riyoziyot falakiyot ilmlariga bo‘lgan qiziqish ancha tez uyg‘ondi. VIII – X asrlardayoq Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Axmad Farg‘oniy, Abduraxmon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi olimlar matematika va astranomiya bo‘yicha keng ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Ayniqsa Xorazmiyning riyoziyotga bag‘ishlangan <<Aljabr va al – muqobala>> - << tiklash va qiyoslash>>, <<Hind arifmetikasi haqida kitob>>, <<Astronomik jadvallar>>, <<Jo‘g‘rofiyaga oid>>, <<Er suvrati>> kabi noyob asarlari o‘sha davr olimlarining yangi kashfiyotlari uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Xorazmiy tuzgan <<Zij>> musulmon olimlari tuzgan <<Zij>>lardan eng birinchisi edi. IX asr boshida, Xalifa Ma‘mun davrida bog‘dod katta ilmiy va madaniy markazga aylandi. 1010 yil <<Donishmandlar uyi>> - <<Bayt – ul hikma>> tashkil topdi. Bu ilmiy markaz tarixga <<Ma‘mun akademiyasi>> degan nom bilan kirdi. Uning raxnamosi Abu Rayxon Beruniy bo‘lib, uning boshchiligidagi qator qomusiy olimlar (Abu Nasr ibn Iroq, Ibn Sino, Abu Saxe Masixiy, Abdulxayr Ibn Xammor, Abu Fazl Bayzaqiy va boshqalar) ko‘plab amaliy va ilmiy muammolarni echib, jahon fani rivojiga katta hissa qo‘shdilar. Jumladan, Beruniy Xorazm, Kat, Gurganj bilan bog‘liq loylar, shahar va qishloqlarning jug‘rofik kengliklarini aniqlab, shu joylar tushirilgan Er qurrasi modelini yasadi. Bu insoniyat tarixida iol bor yaratilgan yarim shar ko‘rinishdagi o‘ziga xos globus edi. Beruniy o‘z tadqiqotlarida hozirgi Amerika qit‘asining mavjudligiga ilmiy ishora qilgan edi.

Ma’lumki, Aristotel mantiq ilmini chuqur bilgan buyuk alloma edi. Abu Ali Ibn Sinoning ustozlari bo‘lmish Abu Nasr Farobiy ham mantiq ilmini chuqur, mukammal egallagan zotdir. Abi Ali Ibn Sino esa ana shu xar ikkala buyuk ustozlardan mantiq ilmini mukammal egalladi va o‘zi ham bu muhim sohada ijod qildi. Ibn Sinoning mantiq borasida yozgan eng yirik asari uning “ash- shifo”siga kirgan mantiq qismlaridir. Ma’lumki, Ibn Sino “ash- Shifo” asarini 4- qismga bo‘lgan: mantiq, tibbiyot, riyoziyot(matematik ilmlar) ilohiyot metafizika. Bulardan mantiq qismi to‘qqiz bo‘lak asardan iborat. Bularning har birisini Ibn Sino “fan” deb ataydi.

Shunga ko'ra "ash- Shifo"dagi mantiq to'qqiz fandan iborat, yani to'qqiz kitob bo'lib chiqadi. Bular quyidagi mavzulardan iborat:

- 1.al- Madhal- bu mantiqqa kirish;
- 2.al- Maqulot- kategoriyalar;
- 3.al-Ibora- interpretsiya;
- 4.al- Qiyos- sillogizm;
- 5.al-Burxon- isbot, dalil;
- 6.al-Jadal-dialektika;
- 7.as- Safsata- sofistika;
- 8.al- Xitoba- ritorika;
- 9.ash-She'r- poetika.

O'rta asrlarda mavjud taqsimotlarga ko'ra she'riyat ham mantiqqa kirgan. Ibn Sinoning bu erdagi mantiqqa oid asarlarining to'qqiz qismga bo'linishiga asosiy sabab Aristotelning mantiqqa oid asari – "Organon"ning to'qqiz bo'lak bo'lishidir. Ibn Sino ham mantiq ilmini atroflicha bayon etish maqsadida Aristotelning shu tartibini olgan. Bunda mantiq turkumiga kirgan asarlar jumlasini alohida nomlamay ularni "ash- SHifo" turkumining bir qismi sifatida keltirgan. Bu yrda faqat Aristotel mantiqqa muqaddima, kirishni "Isogichi" deb atagan bo'lsa, Ibn Sino uni shunchaki "Madhal"(kirish) deb qo'ya qolgan. Ibn Sino "ash- Shifo"sidagi mantiq qismi "al-Madhal"(kirish) bilan boshlanadi. Bu asar go'yo mantiq ilmini o'qishdan oldin bilish kerak bo'lgan muqaddima sanaladi. Ibn Sinoning o'zi mantiq ilmini o'rganishga dastlab bel bog'laganida ham bu fanning muqaddimasidan boshlagan edi. Faqat uning o'rgangan bu asari Porfiryning "Isoguchi" asari edi

Isoguchi- aslida yunincha "Isoguki"dan bo'lib, u uch so'zdan tuzilgan: isa- sen degani, agu-men, aki- anovi erda deganidir. Bu so'z "senu men anavi erda o'tirib olib, beshala narsani gaplashib olamiz" degan mazmunda aytiladigan gapdan olingan. Bu bilan mantiqdagi besh masala (jins,naf, fasl, xossa, aksidensiya) kabilar muhokamasi nazarda tutiladi. Undan tashqari "isoguchi – yaprog'i beshta bo'lgan bir gulning ismi, u gulning yaprog'ining chiroyligidan mantiqning ochilishi, yani muqaddimasi unga o'xshatilgan. Bu so'zdan kitobning ma'lum faslini emas, balki o'sha so'zlanayotgan mantiq ilmining beshala masalasi tushuniladi. "Isoguchi" asarining 1952 – yili Qoxirada O'rta asrda bo'lgan tarjimasining nashridan uning muqaddimasi quyidagicha; kitobning birinchi qismi Porfiryning muqaddimasi bilan ochiladi, keyin jins, nav, fasl, xossa va aksidensiyalarning ta'rifi beriladi. Mana shu besh masala mantiqqa kirgan muqaddima bo'lgan. Buning isoguchi atalishiga ham shu besh masala sabab bo'lgan. Undan keyin Porfiryning bu kitobida jins va fasl haqida, jins va nav haqida, jins va xossa haqida, jins va araz- aksidensiya haqida hamda bularning bir-biriga mushtarakiligi, ulardagi har xillik kabi

masalalarga to'xatilgan. Ibn Sinoning mantiqqa "Kirish" degan kitobi ikki maqola va 18 fasldan iborat. Ibn Sino bu asarida yozlganlarning qaysi va qanday masaladan iborat ekanligi, mantiq ilmini o'rganishga bo'lgan qiziqish, uning foydalari, fanlar o'rtasida tutgan o'rni haqida, alohidalik va umumiylik, butun va bo'lak, aksidensiya va sustansiya hamda bu ikki so'nggi atama haqidagi tushunchalar va ularning sharxi masalalarga to'xtaydi.

Mantiq turkumining ikkinchi bo'limi- "al- Maqulot"- "kategoriyalardan iboratdir. Bu qism eti maqoladan, o'ttiz olti fasldan tuzilgan. Bunda muallif kitob yozishdan kutilgan maqsad, so'zlar, ularning monand kelish kelmasligi, qarama-qarshi ma'noda ishlatilishi mantiqdagi aksidental ta'rif, ularning sharxi, ma'lum bir narsaning ikki vajah-sababdan – ham aksidental va ham substansional bo'lishi haqida va boshqa masalalar baxs etiladi. "Ash- Shifo" dagi mantiqning uchinchi qismi "al- Ibora" deb ataladi. Ibn Sinoning bu asari Aristotelning "Germenevtika" kitobi ta'sirida yozilgan. Bu esa uning mantiqqa oid yirik asarining ikkinchi juzi- bo'limi bo'lib kelgan edi. Asar Sharq mamlakatlarida keng tarqalib, madrasalarda o'qitiladigan darslik ham bo'lgan Hatto Aristotelning bu kitobi islomdan oldin suryoniy tiliga tarjima bo'lgan, lekin olimlar undan foydalanishda qanoat hosil qilmagani uchun yunon tilidan ikkinchi marta suryoniy tiliga Xunayn ibn Ishoq o'tirgan. Keyin uning o'g'li ibn Xunayn suryoniydan arabchaga ko'chirgan. Shu bilan birga bu asarga Porfiriy va Yahyo an- Nahviy sharxlar bitgan , shuningdek, asarni Abu Bishr Matto ibn Yunus va Forobiylar ham o'rganib, unga sharxlar bog'laganlar, bu mavzuda mulohazalar bitishgan. Mana shu tarjima va sharxlarni mutolaa qilgan Ibn Sino bu xususda maxsus asar yozishni lozim topgan va o'zining "Kitob al- ibora" degan asarini bitadi. Bu asar qo'lyozmalari Istanbul va Londondagi qo'lyozma saqlanadigan kutubxonalarda mavjud bo'lib, 1970- yili ilk bor Qohirada nashr etildi. Unda keltirilishicha, kitob ikki maqola va o'ng besh fasldan iborat; birinchi maqola- o'n fasl, ikkinchi- besh fasldir. Bunda ism, fe'l so'zlarning mano ifodalashi, yakka va murakkab shaklda kelishi va undagi ma'no o'zgarishi haqidagi so'z yuritiladi. Masalan, ikkinchi fasl ismlarga bag'ishlangan, uchinchi esa so'zlarga, to'rtinchi o'zak masalasiga hamda ismlarning so'zlardan kelib chiqishi masalasi (yani, etimologiyasi), keyingi fasllarda esa qo'shimchalar, so'z ma'nolarining to'g'ri va qarama – qarshi ma'noda kelishi, rost- yolg'on kabi bir- biriga teskari mazmunda keladigan so'zlarning ishlatilishida ma'no o'zgarishi kabi sohalarda mulohaza yuritadi. Umuman olganda bu asar so'z va jumalarning qaysi ma'noda ishlatilishi haqidadir. "Ash- Shafo"ga kirgan mantiqning to'rtinchi qismi "al- Qiyos" (sillogizm) deb yuritiladi. Bu asar to'qqiz maqola va oltmish uch fasldan iborat bo'lib, mantiqda qiyos masalasining rang- barang tomonlarin o'z ichiga qamrab olgan. Olimning bu asari Aristotelning "Birinchi analitika" (uni arabchasi "Kito at- tahlilot al- uvlo") siga asosan yozilgan. Asar arab falsafasining bilag'on olimlaridan va Ibn Sino merosi bilan 1949 – yildan beri mashg'ul bo'lgan iatidorli olim Said Zoid tahlili, tartib

berishi hamda diqqat nazaridan chiqqan. Bu kishi qiyosni eti yildan ko'proq vaqt ichida o'n bir qo'lyozma asosida nashrga tayyorlangan. Bu qism boshqalariga qaraganda ancha yirik va xajmi jihatidan salmoqlidir. Unda muallif mantiqning qiyossillogizm borasida hamda uning juda mayda shahobchalariga to'xtab, bu hususda o'z nuqtayi nazarini bayon etadi. Ash – Shifoning mantiqiga beshinchi qism bo'lib kirgan, Ibn Sino iborasi bilan aytsak, beshinchi fasl - << al – burxon>> (isbot, dalil) sanaladi. Olimning bu asari Aristotelning <<Ikkinchi analitika>> degan asari asosida yozilgan. Muallifning kitobini yozishdan maqsadi, ularning mavzusiga ko'proq Ibn Sino fikricha, odatda, isbot, dalil rang – barang bo'ladi. Bir narsaning rostligi ochiq – oydin, hech shak – shubhasiz bo'lsa, bu holda u burhoniy, ya'ni isbotli deyiladi. Agar bordiyu o'sha yuz berishi mumkin bo'lgan narsa ochiq oydinga o'xshash va unga yaqin bo'lsa, bu holda u qiyosiy jadaliy (tortishuvli dialektik) yo sofistik bo'ladi. Bordiyu undan qanoat hosil qilinsayu, o'y – mulohazaga ko'proq monand bo'lsa, bu xitobiy ritorik bo'ladi. Bordiyu tasdiq bo'lishiga yaqin kelmasa, yolg'on bo'lsa, bu she'riy bo'ladi. Undan keyin muallif umumiy tarzda qiyos (sillogizm) prinsiplari, noma'lumni ma'lumdan topish usuli kabi masalalar haqida baxs etadi. Undan tashqari muallif bu asarida isbot prinsiplari va ularning zarurligi isbotdagi xatolar, ilm – fan mavzulari, ular prinsiplari, ilm – fandagi ixtiloflar, bilimlardagi qarama – qarshiliklar, ba'zi shakl (figura) larning boshqalardan ortiqligi, mantiqdagi ta'riflar, sabablar kabi masalalarga to'xtab o'tadi. <<Ash – shifoning>> mantig'ini undan keyin keladigan qismi – kitobi <<al – Jadal (dialektika) dir. Kitob eti maqola va 33 fasldan iborat. Asarning yozilishiga Aristotelning <<Topika>>si turtki bo'lgan. Mufakkirning bu asari o'rta asrlarda arab tiliga bir necha bor tarjima qilingan. <<Ash – shifo turkumiga kirgan mantiqqa oid asarlarning ettinchisi - <<as – Safsata>> (sofistika)dir. Ibn Sino bu asari 1958 yili Qoxirada nashr etilgan. Unga arab faylasuflaridan Ibrohim Madkur kirish so'zi yozgan, kitobning tanqidiy matnini nashrga tayyorlagan. Ahmad Fuod al – Axvoniy asar xaqida o'zining mufassal taxlilini e'lon qilgan. Kitob ikki maqola va o'n fasldan iborat. Birinchi maqola to'rt fasl va ikkinchisi- olti fasldir. Bundan sofistikaning ta'rifi, so'zda ustun kelishi masalasi, ma'no jihatdan noto'g'ri xulosaga kelish, xato turlari va kayfiyati to'g'risida, bir narsa asosida hamda bitta sabab bilan noto'g'ri hulosaga kelish sabablarining barchasini rad qilish yo'llari, mushtarak ism tufayli barcha xatolar sodir bo'ladi, deb o'ylovchiga e'tiroz bildirish hamda boshqa mavzudagi masalalar bayon etilgan. Uni yozishga ham Aristotelning “Sofistlarcha raddiya bildirish haqida” asari asos bo'lgan. Bu erda Aristotel sofistlarning o'z raqibining so'zi to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan, gaplari asosli va mantiqli bo'lish- bo'lmasligidan qat'iy nazar, unga qarshilik ko'rsatib, o'ziga qarshi kelgan fikrga raddiya bildirishni nazarda tutgan. Bu bilan Aristotel bu tariqa fikr yurutuvchi sofistlarning fikr qilish formasining o'zi asossiz ekanligini isbotlamoqchi bo'lgan. SHu nuqtai nazardan qaraganda bu asar “Dialektika”ning davomi degan mulohaza ham o'rinli,

chunki “Dialektika” (Aristotel saylanmasida “Topika”) sakkiz kitobdan iborat bo’lsa, “Sofistika”ni esa uning to’qqizinchisi deb atashgan. “Ash- SHifo”dagi Mantiqqa oid asarlarning sakkizinchisi “al- Xitoba” (“Ritorika”) dir. Ibn Sinoning bu asari Aristotelning “Ritorika” asari asosida yozilgan. Asar to’rt maqola va 29 fasldan iborat. Kitobda muallif xitoba san’atining foydasi, uning asoslari, bo’limlari, dialektika bilan ritorika orasidagi farq, notiqning o’z nutqidan ko’zlangan maqsadi, so’z urg’usi, asosiy e’tibor beriladigan maqsad, ritorika san’atining bu hil sanatlar orasida tutgan o’rni, uning ta’rif va tavsifi kabi masalalarni baxs etadi. SHu bilan birga muallif bu asarida inson xulq- atvori, undagi turli- tuman ko’rinishlar, do’stlik, uning turlari, insondagi muruvvat, xasad, himmat, minnat kabi xislatlarning bo’lishin va uningn kayfiyati masalalariga to’xtaydi. “Ash- Shifo” asaridagi mantiq qismining to’qqizinchi asari bo’lmish “Fann ash- she’r” – “she’r san’ati” (“Poetika”) bilan tugaydi. Allomaning “She’r san’ati” asari odatdagidek avval maqola, keyin fasllarga bo’linmay, bira to’lasiga fasllarga bo’linmay, bira to’lasiga fasllarga bo’lingan xolos. Asar sakkiz fasldan iborat. U, albatta, Aristotel “Poetika”si ta’sirida yozilgan. Shu sababdan unda yunon adabiyoti janrlari haqida, ayniqsa tragediya xususida ancha mufassal to’xtab o’tgan. SHu bilan birga Ibn Sino bu asarida so’zning kelishiga ko’ra, she’riyatga, adabiyotga munosabatini bildirgan. MANTIQ haqida Ibn Sino <<ash – Shifo>>dan keyin yana bir qancha asarlar ta’lif qilingan. Bulardan biri <<an – Najot>> asaridir. Bu asar <<ash – Shifo>>ning qisqartmasi, ixchamlashtirilganidir. Muallif bu kitobida nomi zikr qilingan ko’p jildlarda keltirilgan masalalarni qisqa – qisqa bayon etadi. Hatto u <<ash – Shifo>>dagi mavzularni atroflicha tushunilishi uchun undan qo’yilgan masalalarni bu asarida ixchamlab bergan. <<An – Najot>>ning qo’limizdagi nusxasi uch qisimdan iborat bo’lib unda mantiq (1 – 96 betlar), tibbiyot falsafasi (97 – 195), ilohiyot falsafasi (198 – 310 betlar) kabi bo’limlar mavjud. Bundan tashqari u falsafaga oid <<Donishnoma>> degan kitob ham yozadi. Bu haqida al – Juzjoni o’z xotiralarida Ibn Sinoning qattiq ishga berilganligi borasida gapirib, uning Isfaxonda <<Kitob al – Aloiy>> degan asarini yozib tugatganini qayd etadi. Asar to’rt qisimdan iborat: mantiq, metafizika, fizika va matematik ilmlar. Bu asar forisiy tilda yozilgan bo’lgani uchun unda muallif mantiqning umumiy masalalari, uning maqsad va ta’raflari, fikr qilish turlari va yuqorida <<ash – SHifo>>da bayon etilgan masalalarni ham kiritgan. Muallif <<ash – SHifo>> bilan <<Donishnoma>> kitobi mutolaachisi boshqa – boshqa ekanligini nazarda tutib, <<Donishnoma>> kitobiga mantiqning shoxobchalarini bayon etishga e’tibor bergan. Agar <<ash – Shifo>>ning mantiq qismlaridagi masalalarga keng to’xtalgan bo’lsa, bu erda esa qisqacha to’xtalgan. Bu asarning bir qo’lyozma nusxasi mavjud. Tashqi dushman ta’siri ostiga tushib qolgan, o’z vatanining daxlsizligiganputur etgan, o’zgalar zulmini ko’rgan xalqda millat tuyg’usi, millat xissi, vatan va vatanparvarlik g’oyalari nihoyatda kuchli bo’ladi. Bu g’oyalarning hozirgi paytda kuchayib yuzaga chiqayotganligi bejiz emas. Agar turkiylar tarixiga

nazar tashlasak, ularda ham shu g'oyalarning ustuvor ekanligiga ishonch hosil qilamiz. SHu nuqtai nazardan qaraganda Boqijon to'xlievning <<Muloqot>> jurnalining 1994 yil 1 – 2 sonlarida chop etilgan <<Yusuf Xos Xojib falsafasi>> maqolasi diqqatga sazovordir. Yusuf Xos Xojibning XI asrda yaratilgan <<Qutadg'u bilik>> asarini kuzataylik. Asar turkey xalqlarning milliy istiqloli bilan aloqador. U mustaqil qoraxoniylar davlatining tashkil topishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Undagi asosiy g'oya el – yurt birligidir. Faqat shundagina milliy mustaqillik saqlanishi, taraqqiy etishi mumkin deb hisoblaydi. YUusuf Xos Xojib yoki yanada qdimgiroq davrga nigoh tashlaylik. V – VIII asrlarda qadimgi turk hoqonligi amal qilingan. Xuddi shu davrda tarixda <<Urxun – enasoy obidalar>> nomi ostida shuxrat qozongan yodgorliklar yaratilgan. Tabgachlar zulmi ostida qolgan turkiylar el – yurt mustaqilligi, xalq ozodligi uchun kurashib maqsadga erishdilar. Yodgorliklar ana shu ulkan maqsad natijalarini tarannum etishga bag'ishlangan. Unda feqat g'alaba nashidasiga emas, g'alabagacha bo'lgan o'g'ir va mashaqqatli yo'l, bu yo'lda tortilgan azob va uqubatlar, ko'rsatilgan jasorat va mardonavorliklar ham tasvir etiladi. Tabiiyki, bunday holatlar keyingi avlod tarbiyasiga nihoyatda ulkan ta'sir ko'rsatadi. Ne baxtki, bizning uzoq tariximizda bunday yodgorliklarimiz oz emas.

Mashxur mutafakkirlarimizning asarlari ham ana shunday tasnifga asos bo'lgan. Temur davridan boshlab Movaraunnaxr va Xurosonda ilm- fan, san'at va adabiyot rivoj topa boshladi. Ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, iqtisodning yaxshilanishi, qishloq xo'jaligining rivojlantirishga e'tibor berilishi, irrigasiya inshootlari qurilishi, kanallar qazilishi va nihoyat aholining turmush darajasi oldingi davrlarga nisbatan birmuncha ko'tarilishi ilm fanning turli sohalarining ravnaq topishiga va ulkan mutaffakirlar guruhi etishib chiqishiga sabab bo'ldi. Temur saltanati davridan boshlab hisob, xandasa, falakiyot, mantiq, ilohiyit, fiqh, falsafa, tarix ahloqshunoslik, jo'g'rofiya, tibbiyot, san'at va adabiyot tez taraqqiy eta boshladi. XIV- XV asrlarda Movaraunnahrda ilm- fanning yuksak cho'qqiga ko'tarilishida Sohıbqiron Temurning xizmati beqiyosdir. Temurning olimlarga qay darajada munosabatda bo'lganini “Temur tuzuklarida” keltirilgan ma'lumotlardan ham bilsa bo'ladi. Temur o'sha davrning yirik olimi, mantiq ilmining bilimdoni, fiqhshunos Mir Said Sharif Jurjoniyning o'zining diniy rahnamosi va piri deb hisoblaydi. Temur saltanatini boshqarish borasida uning bergan qimmatli maslahatlarini inobatga olib, jamiyatni 12 toifaga ajratib, mamlakatni idora qilishda ularga tayanadi. Ana shu toifalarning boshida olimu fozillar turadi.

Tarixdan ma'lumki, qadimdan olimu fuzalolar mamlakatlarni bosqarishda faol qatnashib kelganlar. Ular hukmdorlarga davlatni oqilona va odilona idora qilish, mukammal jamiyatga erishish yo'llarini ko'rsatishga intilganlar. Ayniqsa, bu borada qadimgi yunon donishmand, faylasufi Arastuning Iskandarga qilgan nasihati Yaqin va O'rta sharq

mamlakatlarida keng tarqalganligini eslatib o'tish joizdir. Bu pand- nasihatlar, tadqiqotchilarning fikricha, Sharq olimlari tomonidan yozilgan bo'lib, ular alohida risola shaklida hamda shoirlarning badiiy asarlarida keltiriladi. Pand- nasihatlarda Arasti Iskandarni faqat xayrli va ezgu ishlarni qilishga, mamlakatni odilona boshqarishga, fuqarolar baxt- saodati va farovonligi to'g'risida o'ylashga, kamtar, sofdil, haqiqatgo'y, halol bo'lishga, jamiyatdagi tuban va razil illatlarga qarshi kurashga da'vat etadi. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida davlat boshliqlari o'z saroylarida iqtidorli olimu shoirlarni to'plaganlar, davlat ahamiyatiga molik masalalar xususida ular bilan kengashib turganlar. Temur qaysi mamlakatni zabt etmasin, u erdan olimu fozillar, elga tanilgan ilohiyotchilar, san'at namoyondalari, turli kasb- hunar egalarini Samarqandga o'zi bilan birga olib kelishga harakat qildi. Ana shunday olimlardan, mashhur faylasuf, mantiqshunos Mir Sayyid Sharif Jurjoniylar (1339- 1413), o'z davrining ko'zga ko'ringan faylasufi, fiqhshunos Sadiddin bin Umar Taftazoniylar (1322- 1392), tarixchi olim Ibn Arabshoh (1389- 1450), taniqli musiqashunos va olim Abduqodir Ibn G'aybiy (1435- yilda vafot etgan) va boshqalardir. Ular Samarqandda samarali ijod qilib, Movaraunnahr ilm- fan taraqqiyotiga, o'zlarining munosib hissasini qo'shdilar. Temur bu olimlarning ijod qilishi uchun etarli sharoit yaratib berdi, ularga xomiylik qildi. Masalan, Ibn Arabshoh 1401- 1408 yillarda Samarqandda yashab bilim oladi, u erdagi mashhur olimlardan sanalmish falakiyotchi Mavlono Ahmad suhbatida bo'ladi, madrasaga esa Mir Sayyid Sharif Jurjoniylar va Shamsuddin Muhammad al Jazariylar (1350- 1449) lardan talim oladi.

Ilm- fanning rivojlanishiga ayniqsa, mashhur faylasuflar Mir Sayyid SHarif Jurjoniylar va Sadiddin bin Umar Taftazoniylar katta hissa qo'shdilar. Taftazoniylar asli xurosonlik bo'lib, Niso shahri yaqinidagi Taftazon degan joyda tavallud topadi. U G'ijduvon, Turkiston, Xirotda va boshqa shaharlardagi madrasalarda mudarrislik qiladi. U limning ko'p sohalarida ijod qilgan qomusiy olim hisoblanadi. Olim mantiq, fiqh, kalom, insho, geometriya sohasida risolalar bitadi, salaflarning asarlariga sharxlar yozadi. U "As- sadiya", "Tahzib ul- mantiq va al- kalom", "Al- irshod al- xodii" va boshqa ko'plab risolalar muallifidir. Mir Sayyid Sharif asli Jurjon viloyatining Tog'u qishlog'ida dunyoga keladi. U ilm olish maqsadida Xirotda keladi Turkiyada bo'ladi. O'sha davrning taniqli faylasufi Muhammad Fanoriydan mantiq ilmi bo'yicha saboq oladi. So'ngra Misrga safar qilib u erda o'z bilimini yana oshiradi. Keyinchalik Sherozga kelib "Dorun- shifo" madrasasida mudarrislik qiladi. 1387 yili Temur Sherozni zabt etgach, boshqa olimlar qatori Jurjoniyni Samarqandga jo'natadi. Jurjoniylar Samarqandga kelib ilm sohasida katta obro'ga ega bo'ladi, ko'plab shogirdlar etishtirib chiqaradi. U falsafa, mantiq, ilohiyot, falakiyot sohasida barakali ijod qiladi. Uning "Odob ul- munozara", "Risolayi vujudiya" (Borliq haqida risola), "Oynayi gitinamo" (Jahon ko'zgusi), "Usul ul- mantiqiya" va boshqa asarlari mavjud. Jurjoniylar Temur vafotidan so'ng Sherozga qaytadi va shu erda 1413 yili olamdan o'tadi. Temur davrida

Samarqandda ulardan tashqari Mavlono Abdullo Lison, Movlono Bahriddin Ahmad, Mavlono Shamsuddin Muqimiy hamda Oloviddin Koshiy, Jamol Xokiy va boshqa olim hamda shoirlar yashab ijod etishgan. Temurda katta taassurot qoldirgan olimlardan biri arab tarixchisi va mutaffakiri Ibn Xaldundir (1332- 1406). U Tunisda tugʻiladi. SHimoliy Afrikadagi bir qancha davlatlarda yuqori lavozimlarda xizmat qiladi. 1382 – yilda Qoxiraga kelib mudarrislik qiladi. Qozilik lavozimida ishlaydi. Keyinchalik Shomda (Suriya) yashaydi. Uning asosiy risolalari “Kitob ul- ibor” (Ibratli misollar kitobi), “Muqaddima” tarixiy ijtimoiy masalalarga bagʻishlangan boʻlib, ularda kishilarning turmushida ahloq, mehnat va jugʻrofiy muhitning roli haqida soʻz ketadi. Temur Damashqni zabt etgandan soʻng Ibn Xaldun oʻziga oʻxshash bir necha qozi, ulamolar bilan Temur huzuriga va u bilan bir necha marta uchrashib muzokaralar olib boradi. Temur u bilan bir necha bor suhbatlashgach uning bilimi, aqlu zakovatiga qoyil qoladi. Ibn Arabshoh Temur Ibn Xaldunning maʼruzasini tinglab benihoya zavqlanib ketganini va quvonchdan sal boʻlmasa raqsga tushib ketayozganini aytadi. “U (yani Temur) yuzini Ibn Xaldunga qaratib suhbatda boshqalarga emas, faqat unga tayanadi,- deb xabar beradi. Ibn Arabshox ,- Temur undan arab podshohlari va ular haqidagi xabarlardan, davlatlari roʻzgʻori va rivoyatlaridan soʻradi. Shunda Ibn Xaldun Temurga uning aqlini mahliyo qilib, maftun etadigan va zexnini chulgʻab, xayratga tushiradigan hikoyalar rivoyat qiladi. Temur esa podshohlar va xalqlar siyratlarida bilimdon, sharqu- gʻarb tarixining otasi va onasi edi”. Shunday qilib, Temur Movaraunnahr va Xurisonda ilm- fan va maʼdaniyatning yuksak darajaga koʻtarilishiga, Samarqandni ilm- fan va madaniyat markaziga aylanishiga koʻp kuch sarfladi. Temuriylar davrida ilimning koʻp sohalarida ravnaq topdi. Samarqandda Ulugʻbek boshchiligida falakiyot maktabi vujudga keldi., ining dovruqʻI butun jahonga taraldi. Xirotda buyuk shoir va mutaffakirlar Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy yashab ijod etdilar. Bularning hammasida buyuk Sohibqiron Temurning xizmatlari kattadir.

Mirzo Ulugʻbek (1394- 1449) oʻz davrining maʼrifatparvar va jafokash shohi hisoblansada kishilik jamiyati taraqqiyoti, ayniqsa turonliklar uchun alohida qadroyatga ega. Samarqanddan turib Turonni 40 yil (1409- 1449), temuriylar saltanatini oily hukmdor sifatida otasi Shoxrux Mirzo vafotidan soʻng ikki yoʻl (1447- 1449) boshqardi. Shu yillar ichida Samrqandni dunyoga dongʻI ketgan ilmu fan markaziga aylantirib, sanʼat va hunar ahillariga homiylik qilibgina qolmasdan, shahsan oʻzi ham ilm va taʼlim ishlari bilan faol shugʻullandi. Saltanatda avval qator madrasalar, soʻngra dunyoda tengi yoʻq rasadxona qurib, ularda oʻz davrining taniqli olimlari ishtirokida yuqorida saviyadagi taʼlim va tadqiqot ishlarini olib bordi. Natijada Samarqand Ulugʻbek davrida nafaqat Turkistonning, balki butun temuriylar saltanatining yirik ilmiy- maʼdaniy markazlaridan biriga aylandi. Bu erda koʻplab taniqli olimlar etishib chiqdi va ular oʻz davrining nodir kashfiyotlarini amalga oshirdilar. Shuning uchun ham

XVII- XVIII asrlarda yashab ijod etgan mashhur fransuz olimi Volter Ulug‘bek boshliq olimlar dargohini matbuotda ilk bor “Samarqand akademiyasi” deb e‘tirof etdi. O‘zbek olimlardan akademik Qori Niyoziy, Bo‘riboy Ahmedov, Ashraf Ahmedov, Abdulahad Muhamadjonovlar ham bu maskanni “Ulug‘bek akademiyasi” deb atashdi.

Xulosa

Bugun Mustaqil O‘zbekistonimizda sodir bo‘layotgan bunyodkorlik isloxiy o‘zgarishlari o‘z mazmun mohiyatiga ko‘ra faqat va faqat bunyodkorlikka qaratilgandir. Bunda idroki tamonidan yaratilgan ilm fan yutuqlari misli ko‘rilmagan darajada imkoniyatlarni kishilar qo‘liga bermoqda. Shunday ekan bu imkoniyatlarning odamlar ma‘naviyatiga ta‘siri masalasiga alohida e‘tibor bermay bo‘lmaydi. Samarqand “Bayt- ul hikma”sining ilk kurtaklari yuqorida aytganimizdek Ulug‘bekning bobosi Amir Temur davridayoq shakllana boshlagan edi. Aslida bu ulkan ilmiy dargohning ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Ulug‘bek madrasani butkazgach, unda dars beradigan olimlarni shaxsan o‘zi tanlab oldi. Buning uchun ular bilan suhbatlashdi va ularning ilmiy malakasi etarli ekanligiga shaxsan ishonch xosil qildi. Masalan, madrasa qurilishi bitay deb qolganda, bino qurilishida hozir bo‘lgan kishilar Ulug‘bekdan kim mudarris etib tayinlanadi, deb so‘raydilar. Ulug‘bek, hamma fanlardan bilimdon bo‘lgan kishi topib tayinlanadi, deb javob qildi. Bu payt bir to‘p g‘ish orasida g‘arib kiyinib o‘tirgan Mavlono Muhammad Havofiy Ulug‘bekning so‘zini eshitib qoladi va shu zahoti mana shu vazifaga munosib kishi ekanligini aytadi. Ulug‘bek uni so‘roqqa tutib, bilimlaridan qanoat hosil qiladi va uni hammomga yuborishni va yahshi sarpo kiydirishni buyuradi. Madrasa ochiladigan kun Mavlono Muhammad mudarris sifatida dars o‘qiydi, garchi bu darsda 90 nafar olim hozir bo‘lsada Ulug‘bek bilan Qozizoda Rumiyan tashqari hech kim bu darsni tushunib eta olmaydi.

Ulug‘bek Xavofiy bilan yaqinroq tanishgach uning jami ilmlar bo‘yicha katta olim ekanini tan olib, istedodiga shunday baho beradi: Agar bordiyu, barcha kitob va risolalarni daryoga tashlasalar va biror olmdan olamda asar qolmasa, u barcha ilmlarni hayotga qaytara olishga qobildir. Bunda biror ilmdan va fandan nuqta yoki daqiqa nobud bo‘lmagay. Ulug‘bekning hayoti va ilmiy faoliyatini chuqur o‘rgangan akademik Qori Niyoziyning va tarixchi Bo‘riboy Ahmedovlarning tasdilashlaricha Samarqandda Ulug‘bek boshchiligida 100 dan ortiq xatto 140 gacha etuk olimlar faoliyat ko‘rsatgan. Biroq Samarqand “Bayt- ul hikma” sidagi asosiy o‘rinni Ulug‘bek astronomic maktabi va madrasada ishlovchi olimlar egallagan edilar. Ular qatorida Mirzo Ulug‘bekdan tashqari zamonasining etuk olimlari- Qozizoda Rumiyan, Mavlono Ahmad, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Muxammad Havofiy, Ali Qushchi, Abu Ali Birjondiy, Qozizoda Rumiyaning nabirasi Mirim Chalobiy, Mo‘yniddin Koshiy, Muhammad Oliy Samarqandiyalar bor edilar. Polyaklarning XVII asrda Yan Geveliy ismli mashhur munajjim olimi

bo'lgan. U "Prrodromus astronomiya" (Astronomiya darakchisi) degan ajoyib bir kitob yozib qoldirgan. O'sha kitobda ulug' vatandoshimiz Mirzo Ulug'bek haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar bor va yana uning siymosi tushurilgan ikkita qimmatli surat ham bor. Mirzo Ulug'bek munajjimlar xudosi Uraniya va Ovrupalik beshta mashxur munajjim: yunon Bitlimus (miloddan avval taxminan 170 yili vafot etgan), nemis Gass (1532 – 1592), daniyalik olim Tixo Brago (1546 – 1601), italiyalik Jan Richchioli (1598- 1671) va Geveliy (1611- 1687) bilan birga joylashtirilgan. Dunyo olimlari Ulug'bekni buyuk munajjim va olim sifatida XVII asrdayoq tan olgan ekan. Uni ilmi nujm (astronomiya)ning amaliy va nazariy masalalarini o'z ichiga olgan "Ziji jadidi ko'ragoniy" nomli shoh asari tufayli dunyo tanigan. Olimlar bu asarni turli tillarga tarjima qilib, chop eta boshladilar, dorulfununlar va rasadhonalarda zo'r ishtiyoq va qiziqish bilan o'rgana boshlaganlar. Masalan, mashhur ingliz olimi, Oksford dorilfununining professori Jon Grivs (1602- 1652) 1648 yili "Ziji jadidi ko'ragoni"ning bir qismini "Yulduzlar majmuasi va jahondagi yirik shaxarlarning egallagan o'rnini" chop ettirdi. Oradn ikki yil o'tib, 1650 yili, Londonda "Ulug'bek ziji"ning xronologiyaga bag'ishlangan birinchi qismi nashr etilidi. Oradn 15 yil o'tib, 1665 yili yana bir sharqshunos olim, Oksford universitetining professori Tomas Xayj (1636- 1703) "Ziji jadidi ko'ragoniy"ning matni va lotincha tarjimasini, zarur izohlar bilan nashr ettirdi. Tomas Haydning ushbu nashri "Ulug'bek ziji" ustida kelajakda olib borilgan barcha ilmiy izlanishlarga asos bo'ldi.

Glosariy

Ilm-fan – o'qish o'rganish xamda xayotiy tajriba asosida ortirilgan bilim va malakalar majmui.

Madaniyat – ko'p qirrali va chuqur mazmunga ega tushuncha bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti davomida insonlarniig faoliyati tufayli qo'lga kiritgan barcha moddiy va manaviy yutuqlarning majmuasidir.

Jamiyat – kishilarning tarixan karor topgan xamkorlik faoliyatlari majmui. Jamiyatdagi xama narsa (moddiy va manaviy boyliklar insonlar xayoti uchun zarur bulgan shart-sharoitlar yaratish va b.) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi.

Ma'naviyat – (arabcha ma'ni, ma'noni bildiradi) insonni ruhan poklash qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamni ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon- e'tiqotini butun qiladigan vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarini mezoni

Davlat – suverenitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus majburlov apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquq normalarini yaratishga qodir bo'lgan, kishilik taraqqiyotining malum bosqichida kelib chiqqan, ommaviy hokimiyatning siyosiy- hududiy tashkiloti.

Ekologiya - (yu noncha oikos-uy turar joy logiya- fan) organizmdagi xar xil darajada yukori turadigan sistemalar populyatsiyalar biosenozlar biogenozlar va biosferaning tuzilishi ularda kechadigan jarayonlar urganadigan biologiya fanlar majmui.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T. «O'zbekiston». 2005.
2. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. T. «O'zbekiston». 2005.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. - T.: O'zbekiston, 1999. T-7. 84-102 - b.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T-8. -T.: O'zbekiston, 2000.t 462-467 b.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T-6. T.: O'zbekiston, 1997. 324-346 b.
6. Karimov I.A. «Kamolot» yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin. T.: O'zbekiston, 2001.
7. Abu Nasr Farobiy. «Fozil odamlar shahri». – T «Adabiyot», 1993.
8. Azizxo'jaev A.A. Chin o'zbek ishi. – T.: «Akademiya», 2003.
9. Amir Temur jahon tarixida. YUNESKO. Parij, 1996.
10. Tilab Mahmudov. Avesto haqida. T.: «Sharq», 2000.
11. Barot Boyqobilov. «O'zbeknoma». T.: ««Sharq»», 1999.
12. Buyuk siymolar, allomalar. T.: «Ma'naviyat», 1995.

13. B.Qodirov, X.Matyaqubov. “O’zbekiston tarixidan izohli lug’at”. T.: ”Mumtoz so’z” 2010.
14. “Ekologiya va Tabiatni muhofaza qilish”. X. O’rozboyev T.: 2010.
15. T.: “O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”. Davlat milliy nashriyoti, 2007
16. WWW.edu.uz
17. WWW.adu.uz
18. WWW.ziyoNet.uz